



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR
№35

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
8-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-8**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Iskandarova Dilfuza Sobirovna	
O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISHDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI	7
2. Jo'rayeva Surayyo Ravshanovna	
O'ZBEK QADRIYATLARI TARANNUMI TOG'AY MUROD ASARLARIDA.....	9
3. Vafoqulova Go'zal Ochilovna	
IMOM BUXORIY HADISLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA ULARNI O'QITISH USLUBIYATI	11
4. Bahromova Shoira Rahmonaliyevna	
ABDULLA ORIPOV IJODINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	13
5. Farmonova Nilufar Qutbiddinovna, Jalilova Zebuniso Esanova	
ERTAK YOSH AVLODNING KAMOL TOPISHIDA BEQIYOS AHAMIYATGA EGA.....	15
6. Raximova Shoira	
ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI	17
7. Saparova Nilufar Bekberganovna	
SOHALARGA OID BADIY ADABIYOTLARNI KO'PAYTIRISH DAVR TALABIDIR	18
8. Satibaldiyeva Nadira Yuldashevna	
HAMID OLIMJONNING XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH MAHORATI	20
9. Utegenova Sholpan Abusagievna	
ABAY – BUYUK QOZOQ SHOIRI VA MA'RIFATPARVARI.....	22
10. Yusupova Go'zal Xusayinovna	
ILM-MA'RIFAT PESHVOSI	24
11. Yusupova Sanobar Kurbanazarovna, Iskandarova Mehribon Yuldashevna	
OQ KEMA QISSASIDAGI "SHOXDOR ONA BUG'U" TIMSOLIDAGI RAMZIYLIK	26
12. Jo'rayeva Gulnoz Komilovna	
ONA TILI FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARGA DTS TALABALARIDA KO'RSATILGAN BKM LARNI O'ZLASHTIRISHDA AMALIY ISH VA MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISH	28
13. Maxkamova Nasibaxon Azamjonovna	
QISSALARDA SUJET VA KOMPOZITSIYA TAHLILI	30
14. Normatova Dilfuzaxon Abdumalikovna	
«NAVOIY» - TARIXIY-BIOGRAFIK ROMAN JANRINING NODIR NAMUNASI.....	32
15. Imomnazarova Xursanoy Abduvaliyevna	
ONA TILI YASHASA MILLAT YASHAYDI.....	34
16. Kuranboyeva Oyshajon Baxrambekovna	
ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA UCHRAYDIGAN SAN'AT TURLARI	36



АДАБИЁТ

O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISHDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

Iskandarova Dilfuza Sobirovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

18-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon:+998 942206926

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi misolida adabiy ta’limda o‘quvchilarni badiiy asar matni ustida ishlashga o‘rgatish va ularning tafakkurini o’stirish yuzasidan fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ifodali o‘qish, syujet, tahlil qilish, xulosa, yechim, maqol, epigraf, asar tuguni, timsol, jismoniy va ma‘naviy bemor izohlashi, uzviy qismi.

Adabiy asarlar vositasida o‘quvchilarda ma‘naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish adabiy ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Adabiy ta’limda o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish, ya’ni matn tahlili, matn ustida ishlash o‘quvchiga asar g‘oyasini idrok qilish, timsollarga tavsif berish malakasi, so‘z qudratidan bahra olish, hissiy-ruhiy quvvatlanish, badiiy asardan zavqlanish, kitobga mehr qo‘yish, falsafiy mushohadaga, teran fikrga ega bo‘lish, yozuvchi uslubidan bahramand bo‘lish kabi juda ko‘p sifatlar matnni o‘ganish, tahlil qilish natijasida yuzaga keladi.

Badiiy asar matni ustida ishlashni bir necha bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

1. Asar matni bilan yaxshilab tanishib chiqish va ifodali o‘qish.
2. Asar syujetini belgilash.
3. Matnni tahlil qilish: tarixiy, eskirgan va yangi so‘zlarni ajratish, timsollarni belgilash, tavsiflash...

4. Matn yuzasidan savol va topshiriqlar tuzish.

5. Badiiy asar matni yuzasidan xulosa, yechim hosil qilish.

Quyida Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasining matni tahlil qilish orqali o‘quvchi tafakkurini boyitish haqida fikr yuritamiz. Adibning “Bemor” hikoyasi 6-sinfda o‘rganiladi. Matn o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib berilishi yoki o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qilgan hikoya videoyozuvi eshittirilishi ham mumkin. Hikoya shunday o‘qishilishi kerakki, o‘quvchilar asar ta‘siriga berilsinlar. Keyin sinfdagi yaxshi ifodali o‘qiy oladigan o‘quvchi matnni yana bir marta o‘qib beradi. So‘ng dastlab o‘quvchilardan asardan olgan taassurotlari haqida so‘raladi, savol-javob orqali o‘quvchilarning ilk bilimlari aniqlanadi. Ma’lumki, hikoyaga “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli epigraf qilib olingan. Asar matni ustida ishlash ham ana shu epigraf mohiyatini tahlil qilishdan boshlanadi. Bu epigraf asar mohiyatini anglashda o‘quvchiga yordam beradi. O‘quvchilardan maqolning mazmuni, qanday holatlarda qo‘llanishi so‘raladi. Albatta, o‘quvchilar bu maqolni odamlar boshiga kulfat tushib, chorasisz qolgan holatida ishlatadilar, deb fik bildiradilar. O‘qituvchi hikoya keltirilgan bu maqol faqat Sotiboldigagina tegishli emasligini, buni asar tahlili davomida bilib olishlarini aytadi.

O‘qituvchi sharhlab o‘qish usuli, savol-javob usuli, tadqiqot usullaridan uyg‘un foydalangan holda matn ustida ish olib boradi. “Sotiboldining xotini og‘rib qoldi” gapi bilan hikoyaning boshlanishi bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Shu gap asar tuguni bo‘ladi. Bu tugun yechimi yuzasidan o‘qituvchi voqealar rivojini quyidagicha chizadi va shu asosda o‘quvchilar hikoya yuzasidan berilgan savollarga javob beradilar.

1. Sotiboldining xotini og‘rib qoldi.
2. Sotiboldi uni eskicha o‘qitdi.



3. Tabib qon oldi.
4. Bemorning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘lib qoldi.
5. Baxshi o‘qidi.
6. Allaqanday bir ayol o‘zicha davoladi: tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi.
7. Qo‘sni bir kampirning maslahati bilan qizi tongda turib duo qildi.
6. Bemorga “Chilyosin” o‘qitishdi.
7. Bemor olamdan o‘tdi.

O‘quvchilar asar matni bilan tanishish davomida o‘qituvchi tomonidan berilgan juda ko‘p savollarga javoblarini aytadilar, munosabatlarini bildiradilar. Asar matni ustida ishlashda o‘quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlarning ahamiyati katta rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi hikoya yuzasidan quyidagi savol va topshiriqlarni berishi maqsadga muvofiqdir:

1. Sotiboldining xotinini og‘rib qolishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?
2. Sotiboldiga kasalni o‘qitishi, tabibga, baxshiga, o‘zini “tabib” hisoblagan bir ayolga ko‘rsatishi to‘g‘rimi?

3. Qo‘sni bir kampirning maslahati bilan qizchasini saharlab iltijo qilishga undagani to‘g‘rimi?

3. Odam ma‘naviy va jismoniy bemor bo‘lishi mumkinmi? Jismoniy va ma‘naviy bemor deb qanday odamlarni aytish mumkinligi haqida fikr yuriting.

4. Sizningcha, hikoyadagi qaysi timsollarni jismoniy, qaysi timsollarni ma‘naviy bemor deb atash mumkin?

5. Yuqorida berilgan savollarga javob berish orqali hosil qilingan bilimlaringizdan foydalanib yozuvchi asarga nima uchun “Bemor” deb nom berganini izohlab bering.

6. Hikoyada aks etgan davr bilan bugun kunni taqqoslang va fikringizni aytинг.

7. Hikoyada necha kishining ismi keltirilgan va ular orasida farq bormi?

8. Hikoyada Sotiboldi, Abdug‘aniboy, kampir, qizcha, gadoy, bemor ishtirok etgan. Asarda ulardan qaysi timsolning nutqi, gaplari keltirilmagan?

Yuqoridagi savollarga o‘quvchilar javob berish uchun o‘ylaydi, fikrlaydi. Demak, matnni bunday tahlil qilish o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlariga yordam beradi. Ular hikoyadagi voqeа-hodisalarga o‘z munosabatlarini erkin bildiradilar.

Savol-javoblardan keyin “Tadqiqot” usulidan foydalaniladi. Bunda hikoyada qo‘llanilgan ba’zi so‘zlar ma’nosini o‘quvchilar izohlaydi, ya’ni tadqiq qilishadi. . Masalan: “To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo‘riydi” jumlasidan kelib chiqqib ushbu topshiriq beriladi:

Pashshaga nisbatan “karaxt pashsha”, “xira pashsha” sifatlarini qo‘llanilish sababini toping. Pashshaning karaxtlik sababini izohlang.

O‘quvchilarga matndan shu tarzdagi topshiriqlar berilishi davom ettiriladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar matni ustida bunday tadqiqiy ish olib borishi ularning mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Matn bilan ishlash, matn tahlili adabiyot o‘qitishning eng muhim uzviy qismi bo‘lib, bu o‘quvchilar tafakkurini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fani o‘quv dasturi. T. 2017-yil.
2. 6-sinf adabiyot darsligi. Toshkent “MA’NAVIYAT” 2017.
3. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati.-T.,2000
4. Mahkamova SH. Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish tajribasidan. “Til va adabiyot ta‘limi” ilmiy-metodik jurnali, 2011, № 4.
5. Nurmatova G. 6-sinfda Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o‘rganish. “Til va adabiyot ta‘limi” ilmiy-metodik jurnali, 2010, № 3.



O’ZBEK QADRIYATLARI TARANNUMI TOG’AY MUROD ASARLARIDA

Jo’rayeva Surayyo Ravshanovna
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani
50-umumi o’rta ta’lim matabining
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
+998994736113

Annotatsiya: Har bir asarning tub mohiyati inson ma’naviyatini shakllantirishga qaratilgandir. Bu maqola aynan shu ma’naviyat masalasini Tog’ay Murod qissalari orqali ochib beradi. Ya’ni manaviyat xalqning o’zi orqali yaratilishiga urg’u beriladi.

Kalit so’zlar: Ma’naviyat, marosim, an’ana, qadriyat, sotsialistik jamiyat

Tog’ay Murod yashagan davr o’ziga xos boldi. So’zlashuv tilimiz quroq bo’lib ketdi. Er hotinga o’rtoq hotin desa, hotin eriga xo’jayin deb murojaat qildi. So’z zargari bo’lgan Tog’ay Murod o’z ona tilimizga og’zaki nutqda ishlatsa ham, imloda qo’llanilmagan bir qator chang bosgan gavharni tozalaganday iste’molga olib kirdi. “Oydinda yurgan odamlar” asarida Bo’ri polvon hotinini Tilovberdining onasi deydi, Ziyodulla chavandoz esa ayolini ayolimiz deydi. Asarda sovchilar voqeasi ham shunday o’zbekona ruh bilan tasvirlanadiki, ming yillik urf odat va an’analarga to’la o’z yurtingizni go’yoki ikkinchi marta kashf etganday bo’lasiz. Muallif bu qadriyatlarni ko’pni ko’rgan oqsoqollarday yaxshi biladi, ularni shoda marvaridday chiroyli qilib bir ipga tizib qalamga oladi.

Mana bir misol, fotiha to’yidan so’ng bo’lajak kuyovto’ra bo’lajak kelinni ko’rgisi keladi. eson qassobnikiga oqshom vaqt oshnalari bilan qayliqlab boradi. Ohista darvozani chertib muddaolarini aytishadi. “kuyov qaylig’I bilan ko’rishsin”, deydi oshnalari. Yanga bo’lmish qassobning xotini yo’l bermaydi. Yo’q, ularni ba’zi asarlardagidek “Lambada” bilan “Chinnuri” qo’shig’ini qo’yib berib, shampan vinosi bilan mehmon qilmaydi, aksincha, qishloqda yashaydigan o’zbek yangalar aytishi mumkin bo’lgan birgina gapni aytadi:

- Ko’rishgisi kelsa to’y qilsin.

Gap tamom. Boshqasi ortiqcha. Bunday paytda yanganing gapi qonun. To’y bo’ldi. Tog’ay Murod to’y marosimlarini shunday mohirona tasvirlaydiki, bu tasvirlar, tan olish kerakki, haligacha she’riyatda ham yo’q. Shunisi ibratlik, marosimlar yosh kelin kuyovni ahillikka, o’zaro hurmatga, sadoqatga da’vat etib, ma’naviy burchlar yuklaydi. Bo borada ayniqsa oyna ko’rsatar marosimi jozibali ko’rsatilgan:

“Kayvoni ayol kelin kuyov boshini yonma yon ushladi. Yuzlarini oynaga qaratib turdi. Bir birlari bilan aytishmaganlarigada qo’ymadi. Kuyov kelin aksi bilan, kelin kuyov aksi bilan pichirlashib aytishdi.

- Bizni voyaga yetkazmish ota onamizga ming bor qulluqlar bo’lsin.
- Akamiz bilan yangamizga undanda ko’p.
- Bir-birimizga o’la o’lguncha sodiq bo’laylik
- Undan keyinda shunday bo’lsin
- O’g’il qizlarimiz...
- Ko’p bo’lsin”

Aytish mumkinki, bu tilaklarning barchasi ushaldi. Oxirgisidan bo’lak.

Tog’ay murodning “Momo yer qo’shig’i” nomli qissasi qahramoni Pahlavon Daho bizga ma’lum va mashxur bo’lgan Don Kixotni eslatadi. Farqi shundaki, birining ideali shamol tegirmoni, ikkinchisiniki sinchalak ustidagi bir g’aram hashak bo’lib chiqadi. Qiziq hodisa, aslida sotsialistik jamiyatda yashovchi, yozuvchilikka, daholikka da’vogar shaxs illatlarini fosh etuvchi bu asar baxtli tasodif tufayli e’lon qilinish mumkin bo’lmagan vaqtida e’lon qilinib qoldi. Shu ma’noda muallifni uzoqni ko’ra olgan yozuvchi, besh yil oldin qayta qurishni boshlagan ijodkor deyish mumkin. Shuni alohida ta’kidlab o’tish lozimki, Tog’ay Murod bu qissasida oldingi asarlaridagi qahramonlarning mutlaqo teskarisi bo’lgan obrazni yaratdi. Adib bu qissada tilga olgan illatlar endilikda biz uchun sotsializm qoldiqlariga aylandi. Shu qoldiqlardan biri shaxsning o’zligini yo’qotishidir. Ma’naviyatsizlik odamni noma’lum kimsaga, ibtidoiy kishiga aylantiradi. Qissada Pahlavon Dahoning dovdirab ko’pincha maymun holiga tushishi bejiz emas.

Tog’ay Murod ma’naviyatni ulug’lovchi yozuvchi. U ma’naviyat urf odatlardan, an’analardan,



xalqona rasm-rusumlardan, ming yillik qadriyatlardan tarkib topishini yaxshi biladi. Shuning uchun ham, o’z asarlarida polvonlar kurashidan, chavandozlar ko’pkarisidan falsafiy mazmun qidiradi va topadi. Go’dak ona sutidan bahramand bo’lganidek, har bir shoir yoki yozuvchi ma’lum bir xalq og’zaki ijodidan ozuqa oladi. Adib ham o’z qissalari bilan o’z tili, uslubida ming yillik tarixga ega bo’lgan kata adabiyot bilan birga oddiy voqe’lik, turmush, hayot ta’siri kuchli ekanini ro’y-rost isbotlab berdi. U ma’naviyat ahloq masalalarini yoritishda odamlar orasida yashab kelayotgan ko’p yillik an’analarga tajribalarga murojaat qiladi. bunday qaraganda “Yulduzlar mangu yonadi” asari kurashchilar, chavandozu polvonlar haqidagi asarga o’xshab ko’rinsada, aslida, qissa inson va uning hayotdagi o’rni, qadri to’g’risidadir. Adib o’z qahramonlarini oddiy odamlar orasidan tanladi va ularning hatti-harakati orqali qadimiy qadriyatlarni, halollikni, poklikni madh etadi. Uning qahramonlari ma’naviy jihatdan boy, hatto boshiga qilich kelsada o’z ahdidan qaytmaydigan o’zbek xalqining mard, tanti o’g’il-qizlaridir.

Foydalanimgan adabiyotlar ro’yhati

1. Tog’ay Murod “Oydinda yurgan odamlar”
2. Imomqulov Odil “Tog’ay Murodning qissanavislik mahorati”
3. Karimov N, Nazarov B., Normatov U., Mamajonov S., Sharafiddinov O. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, «O’qituvchi». 1999.
4. Boboev T. «Adabiyotshunoslik asoslari» Toshkent, «O’qituvchi». 2002.
5. Tog’ay Murod. «Otamdan qolgan dalalar». Toshkent. «Sharq», 1998.
6. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. “O’qituvchi” 1996.
7. <http://pedagog.uz/>
8. www.ziyonet.com



IMOM BUXORIY HADISLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA ULARNI
O’QITISH USLUBIYATI

Vafqulova Go’zal Ochilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi ona tili va
adabiyot fani o’qituvchisi
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada Imom al-Buxoriy hadislarning tarbiyaviy ahamiyati keltirilgan, hadislardan ijodiy foydalanishda keyingi asrlardagi harakatlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Rasululloh, hadis, sahih, so‘z, hikoya, naql, rivoyat, sahaba, sunnat, qavl, riyo

Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy merosini o’rganish va uni keng targ’ib qilish, xalqimizni ma’naviyatimizning mustahkam ildizlaridan biri bo’lgan diniy qadriyatlar bilan kengroq, chuqurroq tanishtirish, ularning keng omma, ayniqsa yoshlar tomonidan sog’lom idrok etilishiga yordamlashish bugunning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga bu borada ta’lim tizimida adabiyot fanini o’qitish va turli mavzularni o’quvchilarga o’rgatishda turli interfaol metodlardan foydalanish ham bugunning dolzarb vazifasidir. Ta’lim tizimiga turli ilg’or pedagogik texnologiyalar joriy etila boshlandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’ginlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”¹, deya ta’kidlagan edilar. Bugungi kunda ta’limga xos innovatsion texnologiyalar o’qitish samaradorligini belgilovchi vositaga aylandi. O’quvchilarning mustaqil bilim olishi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, ularni kasbga yo’naltirish masalasi o’qituvchining diqqat markazida bo’lishi lozim.

Mustaqillik davrida hadisshunoslikning mavqeyi nihoyatda oshdi. Hadislar Muhammad payg’ambar hayoti va faoliyati, shuningdek, uning turli sharoitlarda diniy, falsafiy, axloqiy-ta’limiy mavzularda aytgan xilma-xil fikrlari, ko’rsatmalari yoki munosabatlarini aks ettiradi.

Hadislarning yuzaga kelishi uch omil bilan ko’rsatiladi:

1. Muhammad payg’ambar aytgan gaplar.
2. Uning o’zi qilib ko’rsatgan ishlar
3. Payg’ambarimiz tomonidan ko’rilgan yoki kuzatilgan ishning taqilanganmagani.

Ana shu uch holatning har biri sunnat deyiladi. “Sunnat” ham arabcha so‘z bo‘lib, uning lug’aviy ma’nosini “yo‘l, ravish, odat” demakdir. Istilohiy ma’noda esa Muhammad payg’ambardan qolgan urf-odatlarga aytildi. Ularni bajarish vojibdir. Ularda islom diniga oid tushunchalar va ularning talqini, xususan, farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh kabi tushunchalaming ma’no qamrovi, izohi o’z aksini topgan. Hadislarning asosiy katta qismi axloq-odob masalalariga, inson ma’naviyati bilan bog’liq muammolarga qaratilgan.

Hadislarni to’plab, ularning haqiqiyalarini aniqlash bilan shug’ullangan olimlar muhaddis deyiladi. Imom Buxoriy hadislarida ilmni o’rganuvchilar ham, uni o’rgatuvchilar ham hadislarda mo’tabar kishilar qatorida ulug’lanadi: “Foydali ilmlarni o’rganuvchi odamning gunohini kechirilishini so’rab, har bir narsa, hatto dengizdagи baliqlar ham istig’for aytadilar”. Quyidagi hadis ham ilm bilan bog’liq: “Ilming ofati - esdan chiqarmoqlik va ilmga rag’bati bo’lmagan kishilarga o’rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir”.

Vatan va vatanparvarlik bilan bog’liq hadislar ham anchagina. Tabiiyki, ular orasida “Vatanni sevmoq iymondandir” hadisi mashhurdir.

Imom Ismoil al-Buxoriy keltirgan hadislarning yana bir o’ziga xos xususiyati ularning aniq manbalari ko’rsatilanidir: “Olloh Taoloning rozi bo’lishi otaning rozi bo’iishiga va uning g’azabi ham otaning g’azabiga bog’liqdir”, deyilgan hadisning Abdulloh ibn Umar tomonidan rivoyat qilingani qayd etiladi.

Hadislarda ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bo’lgan kishilarga alohida e’tibor berilgan: “Qalbing muloyim, hojating ravo bo’lishini xohlaysammi? Xohlasang, yetimlarga mehribon bo’l, ularning boshini sila, o’z taomingdan ularga yedir. Shunda diling yumshab, hojating ravo bo’lur”.

Bugina emas, yetimparvarlik Ollohga xush keladigan xislat: “Tangri nazdida uylarning

1 Mirziyoyev Sh.M. - “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovon-lining garovi”ma’ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. №: 47. 2016 yil. 8 dekabr. 3-bet.



yaxshirog‘i - yetimlar izzat qilinadigan uydir”. “Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatda birga bo‘lurman”. Ammo yetimlar haqqini yeyishdan tiyilmoq shart, hatto u harom qilinadi: “Ikki zaif toifa, ya’ni yetim va ayol haqqini yemoqlikni sizlarga harom qilaman”.

Ayni paytda yetimparvarlik bilan bog‘liq aqidalar bayoni ham diqqatga sazovor:

“Kimki o‘zining yoki birovlarning yetim bolalarini to voyaga yetib, mustaqil hayot kechiradigan bo‘lgunlaricha tarbiya qilsa, unga jannat muqarrardir”.

Hadislardan ijodiy foydalanish keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu yo‘nalishda Alisher Navoiyning “Arba’in” (“Qirq hadis”) asarini eslash joiz. Zamondoshlarimizdan Abdulla Oripovning “Haj daftari” kitobi ham, asosan, hadisi shariflarga ijodiy yondashish oqibatidir.

Hadislarning barchasida ham kishilar orasidagi iliq munosabatlar, yaxshi fazilatlar, ijobiy axloqiy-ma’naviy qadriyatlar ulug‘lanadi, e兹gulik targ‘ib qilinadi, yovuzlik, yomonlik esa qattiq qoralanadi. Ularni o‘qib-o‘rganish yoshlarimizning serfazilat bo‘lishlariga yaqindan yordam beradi. Ular tarbiya maktabi sifatida avlodlar ko‘ngidan mustahkam joy olaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Kuch adolatda gazetasi. №:47. 2016 yil 8 dekabr.
2. Ahmedov S va b. Adabiyot (5-sinf). - T.: Sharq, 2020. 21-33-betlar
3. Yo’ldoshev Q va b. Adabiyot (7-sinf). - T., 2017. 129-145-betlar



**ABDULLA ORIPOV IJODINI O’RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANISH**

Bahromova Shoira Rahmonaliyevna

Farg’ona viloyati Farg’ona shahar

42-umumiyl o’rta ta’lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’quvchilarga Abdulla Oripov ijodini o’rgatishda interfaol metodlarning ahamiyati, turli metodlardan foydalanish haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Abdulla Oripov, ma’lumotlar zanjiri, nazm daqiqasi, driyyor va orkestr.

Barcha ezgu ishlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog’lom qilib o’stish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko’rish, dunyoda hech kimdan kam bo’lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi.

(I.Karimov)

«O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablaridan biri ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini keng qo’llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda o’qitishni jadallashtirish sanaladi. Shu maqsadda bugungi kun o’qituvchisi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o’tadigan, ijodkor va tashabbuskor o’qituvchi bo’lmog’i lozim.

Adabiyot darslarida interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshiribgina qolmay, o’quvchilarni izlanishga, qo’shimcha materiallardan foydalanishga undaydi,yordamchi adabiyotlarni varaqlashga majbur qiladi.

Shu o’rinda 10-sinf adabiyot darslarida Abdulla Oripov ijodini o’rganishda interfaol metodlardan foydalanish shoir shaxsiyatini tanishda, ijodini o’rganishda katta ahamiyat kasb etadi.10-sinf darsligida shoirning «Munojotni tinglab», «Yurtim shamoli», «Birinchi muhabbatim», «Qo’riqxona»she’rlari o’rin olgan.

Har bir adib asarini o’rganishdan oldin o’quvchi uning shaxsi haqida imkon qadar mukammal ma’lumotga ega bo’lish maqsadga muvofiqdir. Shunda uning ijodini to’laroq anglash imkoniyati ortadi. Shuning uchun ham adabiyot darslarida avval adibning tarjimayi holi bilan bog’liq ma’lumotlar taqdim etiladi. Darslikda berilgan tarjimayi hol ham shoirning hayoti va faoliyatini ochib berishga qaratilgan. Lekin bu bilan o’quvchi shoir haqida to’la ma’lumotga ega bo’la olmaydi. Darsda o’qituvchi tomonidan shoir shaxsi bilan bog’liq bir qator ma’lumotlarning taqdim etilishi o’quvchiga shoir asralarini to’laroq anglash, chiqsurroq tahlil qilish imkonini ham beradi.

Shoir tarjimayi holini o’rganishda «Ma’lumotlar zanjiri» metodi yaxshi samara beradi. Bu metodning afzalligi shundaki bir vaqtning o’zida ham o’quvchilar baholanadi hamda mavzuning eng muhim qismi daftarga qayd etiladi. Birinchi bo’lib bir o’quvchi shoir hayotiga oid ma’lumot aytadi. Bu ma’lumot o’qituvchi tomonidan doskaga qisqacha yozib qo’yiladi. Ikkinchchi bir o’quvchi yangi bir ma’lumot aytadi va bu ham doskaga qayd etiladi. Shoir hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar birin-ketin aytilib, o’qituvchi tomonidan doskaga qayd etib boriladi. So’nggi ma’lumot aytilgach, o’qituvchi doskadagi ma’lumotlarni klaster usulida umumlashtiradi. Doskadagi ma’lumotlarni o’quvchilar daftarlariga ko’chirib oladilar. Bu usul orqali sinfdagi barcha o’quvchi dars jarayoniga jalg qilinadi hamda mavzuning muhim qismi daftarga qayd qilinadi. Masalan:

1- o’quvchi: Shoir 1941-yil 21-martda Neko’z qishlog’ida tug‘ilgan.

2-o’quvchi: Shoirning ilk she’ri «Qushcha» nomi bilan bosilgan.

3-o’quvchi: A.Oripov Dantening «Illohiy komediya» asarini tarjima qilgan.

4-o’quvchi : Uning ilk she’riy to’plamining nomi «Mitti yulduz».

5-o’quvchi: Shoirning «Ayol», «Ona tilimga», «Munojotni tinglab...», «Yurtim shamoli» singari she’rlari bor.



Shuningdek, shoir she'rlarini o‘rganishda «Nazm daqiqasi» metodidan foydalanish o‘rinlidir. Bu metod ikki bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich –ifodali o‘qish bo‘lib, unda magnit lentasidan shoirning «Birinchi muhabbatim» she’ri eshittiriladi (she’rni o‘qituvchining o‘zi ham ifodali o‘qib berishi mumkin). O‘quvchilar she’rning o‘qilish texnikasiga e’tibor qaratishadi va birgalikda qo‘shilib she’rni o‘qishadi.

Nazm daqiqasining 2-bosqichida o‘quvchilar she’r mazmuniga e’tibor qaratishadi. She’riy misralarni matnga aylantiradilar. Tushunganlarini og‘zaki bayon qiladilar.

Shoir she'rlaridan namunalar tinglashda «DRIJJYOR VA ORKESTR» metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘qituvchi drijyor, o‘quvchilar esa orkestr vazifasini bajarishadi. Drijyor qo‘l uchi bilan ko‘rsatgan o‘quvchi shoir she'rlaridan birini yoddan aytadi. Drijyor ko‘rsatgan boshqa o‘quvchi she’r aytishni davom ettiradi. Bu usuldan ko‘proq shoir she'rlaridan yod olish vazifa qilib berilganda, uy vazifasini so‘rash jarayonida foydalanish mumkin. Bunda qisqa vaqtida she’rlarning yodlanish darajasi aniqlanadi va baholanadi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr talabidir. Yosh avlod turli ma’naviy-teknikaviy omillar ta’sirida aqliy-shuuriy jihatdan takomillashib bormoqda. Ular tomonidan qabul qilinadigan axborot oqimi adabiyot bilan ham to‘ldirilishi uchun bu fanni o‘rgatish metodikasidan doimiy izlanish, takomillashib borish, fan o‘qituvchisidan esa qiziqarli va yangi interaktiv metodlardan keng foydalanish talab etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik-majmua.–T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2017. 184 b.
2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: 2006
3. «Til va adabiyot ta’limi» jurnali, 2016-yil. 6-son.



ERTAK YOSH AVLODNING KAMOL TOPISHIDA BEQIYOS AHAMIYATGA EGA

Farmonova Nilufar Qutbiddinovna,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon:+998944848885

Jalilova Zebuniso Esanovna,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon:+998 913357872

Annotatsiya: Maqlada ertakning ta’limiy va tarbiyaviy qiymati, ertakda ilgari surilgan g‘oyalar, ertaklarni o‘rganishda matn ustida ishlash yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: syujeti, g‘oyaviy yo‘nalish, og‘zaki nutq, yangi so‘z, iboralar, o‘qish va tahlil qilish, tasviriy vositalar, ma’nodosh so‘zlar, lug‘at ishi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ma’naviy boyligimiz hisoblanadi. Ertaklarning janriy tabiatni o‘ziga xos. Ertaklar xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo‘lib, o‘ziga xos g‘oyaviy-mavzuviy yo‘nalishga, axloqiy-ta’limiy va ijtimoiy-estetik vazifalarga ega.

Ertakning o‘tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda hikoya qilish shakli, bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertak ta’limiy va tarbiyaviy qiymatga egadir. Tarbiyaviy qiymati shundan iboratki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ta’limiy qiymati oquvchilarning nutq boyligi oshadi. Ertakni oqish va aytish orqali o‘quvchining og‘zaki nutqi rivojlanadi, nutqi yangi so‘z va iboralar bilan boyib boradi.

Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z obrazlar bo‘ladi. Yaxshilik yomonlik ustidan doimo golib boladi. Ezgulik, mehnatsevarlik, do‘slik, ahillik doimo yaxshilik keltirqadi. Masalan, 3-sinfda “Halollik” ertagida asosiy fikr kambag‘allarga yordam berish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, 4-sinfda esa “Hiylagarning jazos” ertagida soddadilning to‘g‘riligi hiylagarning makri ustidan g‘olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g‘oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to‘g‘riso‘zlilik g‘alaba qilishi bilan yakunlanadi.

3-sinfda “Ahillik – ulug‘ baxt” ertagida do‘slik, ahillik ning har narsadan usatunligi, hamkorlikda, birgalikda har qanday ishni amalga oshirish mumkinligi haqida fikr ilgari surilgan bo‘lsa, 4-sinfda “Davlat” ertagida ahillik bor oilada davlat ham bo‘lishi g‘oyasi ilgari surilgan.

O‘qish darslarida ertakni bolalarga o‘qitish bilan cheklanmaslik lozim. Bolalarni ertak mazmunini aytib berishga o‘rgatish juda muhim ahamiyatga ega. Ertakni bir marta o‘qituvchi ifodali o‘qib bergandan keyin lug‘at ishi o‘tkazish zarur. Ertak matnida qo‘llangan yangi so‘z va iboralar, badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag‘alarni aniqlash va ularni izohlash lozim.

Darsda ertak quyidagi tartibda o‘rganilishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:

- a) o‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- b) o‘qituvchining ertakni ifodali o‘qishi, yod aytib berishi va h.k.

2. Ertakni o‘quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish.

3. Ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma’nodosh so‘zlarni topish, lug‘at ishi (ayrim so‘zlar ma’nosini tushuntirish).

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish).

Jumladan, 4-sinfda “Davlat” ertagini qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilishda undagi ayrim tasviriy vositalar, ma’nodosh so‘zlarni topish. Ertakda: aqli shoshib, hushi boshidan uchibdi, holimiz xarob bo‘ladi, boshimizga musibat tushdi, oyoq tirayapti-jonlantitish; “beqiyos boylik”da beqiyos-sifatlashdir. O‘quvchilarga “beqiyos” so‘zining ma’nodoshini topish aytildi. Bajarilishi:



beqiyos-behisob, juda ko‘p.

3-sinfda “Donishmand yigit” ertagini o‘rganish jarayonida quyidagicha lug‘at ishi o‘tkaziladi:
vafodor—o‘z ahd-paymonini muqaddas tutuvchi, so‘zida va va’dasida qat’iy turuvchi, sodiq
so‘rrayib – ozib-to‘zib ketmoq, o‘lar holga yetmoq
bo‘shamay qolibdi – vaqt topolmay qolibdi
bilim-tajriba – ilm, malaka, mahorat; hayotda o‘zlashtirilgan va orttirilgan bilimlar.

Xullas, deyarli barcha ertaklarning g‘oyaviy yo‘nalishi yagona maqsadga-mehnat ahlining buyuk va yorqin kelajak uchun olib borgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. Shuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murod-u maqsadga yetishdan iborat umidbaxsh g‘oya bilan yakun topadi.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e’tiqodida kechgan o‘sish-o‘zgarishlarning badiiy ifodasi sifatida o‘zgacha ahamiyat kasb etgan. Eng muhimi, xalq ertaklari yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘qish fani o‘quv dasturi. (1-4-sinf) T. 2017-yil.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: 1999..
3. O‘qish kitobi. 3-sinf. 2019-yil.
4. O‘qish kitobi. 4-sinf. 2017-yil.
5. O‘qish.3-sinf o‘qituvchilari uchun pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni amaliyatga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent-2016-yil.



ADABIYOT O’QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

Raximova Shoira

Xorazm viloyati Bog’ot tumanidagi
39-son umumiy o’rta ta’lim mактабнинг
она тили va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot o’qitish metodikasi, obyekti, maqsadi va ilmiy-tadqiqot metodlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: adabiyot darslari, maqsad, vazifa, obyekt, ta’lim, metod.

«Adabiyot o’qitish metodikasi» pedagogik fanlar tizimiga mansub o’larоq, ilmning alohida turi bo’lish uchun qо’yiladigan uch talabning barchasiga javob bera oladi. Birinchidan, adabiyot o’qitish metodikasi o’rganadigan soha ilmdagi boshqa biror o’quv fani tomonidan o’rganilmaydi. Ikkinchidan, mazkur fan ishlaydigan soha, ya’ni adabiyot darslarida badiiy asarlar o’qitilishining optimal

va samarali yo’llarini tadqiq etish, adabiy ta’limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, adabiyot o’qitish metodikasi fani o’ziga xos ilmiy-tadqiqot usullariga ega.

Adabiyot o’qitish metodikasi badiiy adabiyot o’qitilish jarayoniga bog’liq qonuniyatlarни o’rganadi. Adabiyot o’qitish metodikasi alohida fan sifatida filologik ta’lim uchun zarur hisoblanib, uning o’z obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni va metodlari mavjud. Bizgacha yaratilgan soha darsliklariga tayangan holda «Adabiyot o’qitish metodikasi» fanining obyektini uzluksiz ta’lim tizimidagi adabiyot darslari, deya ko’rsatish mumkin. Mazkur fanning predmeti esa uzluksiz ta’lim tizimida badiiy adabiyotning o’qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar hamda badiiy asarni o’rganishda o’qituvchi-o’quvchi munosabatlaridagi hamkorlik jarayonidir.

«Adabiyot o’qitish metodikasi» fanining maqsadi bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentliligini shakllantirish, ularga yoshlar ma’naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta’sir kuchidan oqilonla va samarali foydalanish yo’llarini o’rgatishdan iborat. Adabiyot o’qitish metodikasi fani adabiyot darslarining ta’lim muassasalarida o’rganiladigan boshqa o’quv fanlaridan farqini ko’rsatish; adabiy ta’limdagi an’anaviy va novatorlik yondashuvga xos jihatlarni o’rganish; pedagoglarda adabiy ta’lim uchun optimal variantlarni belgilashda zarur bo’ladigan ko’nikmalarni shakllantirish; adabiyot darslarida o’qituvchi va o’quvchi faoliyati hamda ularning o’zaro munosabatidagi o’ziga xosliklar bilan tanishtirish singari vazifalarni o’z ichiga oladi. Shundan kelib chiqiladigan bo’lsa, «Adabiyot o’qitish metodikasi» fanining vazifalari o’qitish jarayonida ta’limning samarali metod va usullaridan foydalanish yo’llarini o’rgatish, badiiy asar tahlilida o’quvchi ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan jihatlarni ochish hamda undan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishga yo’naltirishdan iborat. «Adabiyot o’qitish metodikasi» fanining mazmuni ta’lim metodlari, usullari, shakllari va ularning o’ziga xos xususiyatlari, badiiy asar bilan bog’liq nazariy va didaktik tushunchalar, adabiy matn bilan ishlash jarayonida o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini tashkil etish yo’llarini o’z ichiga oladi.

«Adabiyot o’qitish metodikasi» fanining ilmiy-tadqiqot metodlari qatoriga fanga doir ma’lumot yig’ishning aniq maqsadga yo’naltirilganligi; ilg’or tajribalarni o’rganish, tahlil qilish va ommalashtirish, ta’lim hujjatlarini tahlil qilish, o’qituvchi hamda o’quvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etish kabilarni o’z ichiga oladigan kuzatish; sinalmagan pedagogik hodisalarni har xil sharoitlarda o’rganish maqsadida qо’ylgan ilmiy tajriba ko’rinishidagi eksperiment; ma’lum maqsadga yo’naltirilgan aniq sharoit va tartibda o’tkaziladigan, o’quvchilarning ta’limiy hamda rivojanish darajasini aniq o’lchaydigan tekshiruv tizimi bo’lmish test; ma’lumotlarni oldindan maxsus tayyorlangan savollar va anketalar ko’magida yalpi tarzda yig’ish shaklidagi anketa so’rovnomalari; ta’lim jarayonining son ko’rsatkichlari aniqlanishiga yo’naltirilgan statistik tahlil; metodik merosni tanqidiy o’rganish; o’quvchi ijodi namunalarini o’rganish va h.k.larni kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova Adabiyot o’qitish metodikasi.
2. Q. Yo’ldoshev, O. Madayev, A. Abdurazzoqov Adabiyot o’qitish metodikasi.
3. S. Dolimov, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov. Adabiyot o’qitish metodikasi.



SOHALARGA OID BADIY ADABIYOTLARNI KO’PAYTIRISH DAVR TALABIDIR

Saparova Nilufar Bekberganovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

4-son umumiy o’rta ta’lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi badiiy adabiyot sohasida ijtimoiy hayotning muayyan yo‘nalishlariga ixtisoslashtirilgan adabiyotlar turlarini ko‘paytirishning zarurligi masalasida fikrlar bildirilgan. Bunda sohaga ijtimoiy hayotning badiiy adabiyotlarida yozilmagan yoki chuqur o‘rganilmagan jahbalarini olib kirish va ularni badiiy talqinda berishga erishishning xalq ta’limi sohasi uchun ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, sohaga oid badiiy adabiyot, shaxs, voqelik, badiiy obraz, badiiy adabiyotda modernizatsiya.

Badiiy adabiyot serqirra voqeliklarni o‘z ichiga oladi. Ularni muayyan g‘oya yoki maqsad asosida mantiqiy tizimlashtiradi va badiiy obraz yoki shakllarda ifodalab beradi. Mana shu tizimni, obrazlarni va boshqa tegishli elementlarni tushunarli, sodda, qiziqarli hamda hayotiy bo‘lishi kitobning yashovchanligini oshiradi. Ya’ni o‘quvchilar ko‘p bo‘ladi, hamda har doim o‘qiladi.

E’tibor berilsa, muayyan badiiy adabiyotda aks ettirilgan voqeliklar o‘quvchilar uchun bilimdir. Demak, adabiyotda voqeliklar hamda ular bilan bog‘liq elementlar qancha ko‘p aks ettirilsa, o‘quvchi shuncha ko‘p bilim oladi. Bilimlar to‘plami esa o‘quvchini to‘g‘ri fikrlashga undaydi. Ya’ni shaxs fikrlash bilan voqeliklarga o‘z munosabatini bildiradi. Voqeliklarni tahlil qiladi, natijalarini baholaydi va o‘zi uchun xulosani shakllantiradi. Xulosalar esa shaxs dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladi.

Agar o‘quvchi turli xil soha yoki yo‘nalishdagi voqeliklarga asoslangan badiiy adabiyotlarni (geografiya, harbiy, kosmonavтика, axborot texnologiyasi, raqamli iqtisodiyot, tarixiy va shu kabilar) o‘qisa, badiiy obraz yoki tashbehlar vosisida o‘sha soha bo‘yicha tushunchalar hamda bilimlarga ham ega bo‘ladi. Badiiy adabiyotni qator vazifalari orasida mazkur vazifani ham bajarilishi - zamonaviy shaxs tarbiyasi hamda kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarini asosida aytishim mumkinki, o‘rta maktabning yuqori sinf, kasb-hunar maktablari hamda litsey o‘quvchilarini ko‘philigi darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarida shaxslarning sevgi-muhabbatlari asoslangan, jinoiy olam hatti-harakatlari aks etgan, qo‘rqinchli hamda dahshatli voqeliklarga yo‘g‘rilgan kabi badiiy adabiyotlarni ko‘proq o‘qimoqdalar. Eng achinarli tomoni, shu kabi kitoblarda aks ettirilgan voqeliklar ko‘lami doirasi juda ham tor hamda mazmunan sayozdir. Mazkur turdagи badiy adabiyotlarda yangi ijobiy g‘oyalar, o‘rnak bo‘la oladigan ijobiy obrazlar, shakllanayotgan maqbul umuminsoniy madaniyatlar hamda ahloq-odoblar, ilm-fanga asoslangan texnologiyalar, lug‘atimizni boyituvchi yangi so‘zlar hamda terminlar, “Tarbiyali shaxs qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga javob beruvchi ta’sirchan badiiy yondashuvlar deyarli mavjud emas.

Bunday holatning asosiy sabablaridan biri, yoshlar uchun zamonaviy tarzda qiziqarli qilib yozilgan turli yo‘nalishdagi badiiy adabiyotlar nomenklaturasini kamligi, ayniqsa, muayyan zamonaviy sohalarga oid kitoblarning mavjud emasligidir (Misol uchun, nonotexnologiya, raqamli iqtisodiyot, zamonimizdagi mashhur olimlar yoki biznesmenlar hayoti va shu kabilar).

Demak, milliy adbiyotimizda muayyan zamonaviy sohalarga oid kitoblarni, ham miqdor, ham sifat jihatdan oshirishni vaqtি keldi. Ushbu turdagи kitoblar o‘quvchilar bilimi hamda tarbiyasi uchun juda ham zarur.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan kelib chiqib biz barchani, ayniqsa yoshlarni turli yo‘nalishdagi badiiy adabiyotlarni o‘qishni tavsiya etgan bo‘lardik.

Mamlakatimizda yoshlar uchun muayyan bir yo‘nalishga asoslangan, o‘zida ko‘plab turdagи voqeliklarni qamrab oladigan, pirovard natijada esa o‘quvchilarini sohaga oid dunyoqarashni shakllantiradigan badiiy adabiyotlarni ko‘paytirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Avvalo, mamlakatimizdagi yozuvchilarni, pedagoglarni hamda olimlarimizni muayyan sohaga oid badiiy adabiyotlarni yozishga rag‘batlantirish. Bu tadbir uzoq muddatni talab qilishini e’tiborga olsak, aytib o‘tilgan muammoni qisqa muddatda hal qilish imkoniyati juda ham kam.



Mamlakatimizdagi badiiy adabiyot bo‘yicha tarjimonlarni, shuningdek yozuvchilarni, pedagoglarni hamda olimlarimizni muayyan zamонавиу sohalarga oid xorijiy badiiy adabiyotlarini topishga hamda ular orasida eng maqul deb topilganlarini tarjima qilishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu yo‘l bilan masalani o‘rta muddatlarda hal etish mumkin, deb hisoblaymiz.

2. Adabiyot o‘qituvchilarini muayyan sohaga oid xorijiy badiiy adabiyotlarni topib ularni ro‘yxatini shakllantirishga hamda o‘qishga, o‘quvchilariga tavsiya qilishga, darsdan tashqari soatlarda yoki to‘garklarda shunday kitoblar bo‘yicha suhbatlar uyushtirishni tashkil etishga yo‘naltirish. Mazkur yondashuvda masalani qisqa muddatda qisman hal etish imkoniyati mavjud deb hisoblaymiz.

3. Muayyan sohaga oid xorijiy badiiy adabiyotlarni topish hamda ro‘yxatini shakllantirishda adabiyot o‘qituvchilari internet kanallari vositasida birgalikda harakat qilishlari va o‘zaro fikr almashishlari, bu borada masala yechimini sezilarli osonlashtiradi deb umid qilamiz.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatimizda badiiy adabiyot sohasini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova “2017—2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. <https://lex.uz/docs/3107036>

2. 11-sinf adabiyot darsligi. I nashr II qism “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2018. Boqjon To‘xliyev, Baxodir Karimov, Komila Usmonova, 200 bet.

3. John C. Maxwell. The Irrefutable Laws of Leadership: follow them and people will follow you. Published in Nashville, Tennessee, by Thomas Nelson, Inc. 1998

4. www.tadqiqot.uz



HAMID OLIMJONNING XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Satibaldiyeva Nadira Yuldashevna

Xorazm viloyati Hazorasp tumani

19-son umumiy o'rta ta'lim maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel: +998938656363

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hamid Olimjon ijodida xalq og'zaki ijodining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: H.Olimjon, xalq og'zaki ijodi, asar, voqeа, obraz, mahorat.

H.Olimjonning folklor ruhida yaratilgan liro-epik asarlari bugungi kunda ham estetik qimmatini yo'qotmaganligi bilan barobar, o'z davrida juda muhim adabiy-tarixiy vazifani ado etgan edi. XX asrning 30-yillari dostonchiligiga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda, monografiya va maqolalarda masalani bu tomoniga juda kam ahamiyat berilgan. Ma'lumki, o'sha yillarda amalga oshirilgan vazifa yoppasiga savodsizlikni tugatish ishi xalqimiz ongida katta o'zgarishlar yasadi. Uning adabiyot va san'at sohasidagi alohida hosiyati shu bo'ldiki, asrlar mobaynida tinglovchi bo'lib kelgan keng xalq ommasi-o'quvchi, ya'ni kitobxonga aylandi. Biroq uning doston va ertak voqealari ta'sirida barqarorlik kasb etgan ko'nikmalari yozma adabiyot qonuniyatlarini, ayniqsa, Yevropa, rus va o'zga qardosh xalqlar adabiyotlari ta'sirida yaratilgan yangicha uslubdagi asarlarni qabul qilishga tayyor emasdi.

(Bu haqda A.Qodiriy “O'tkan kunlar” romani tanqidi yuzasidan bildirilgan fikrlarni eslaylik). H.Olimjon kitobxonlar dildagi ma'naviy ehtiyojini birinchilardan bo'lib to'g'ri anglab va his qilib o'z asarlarini maksimal darajada xalq hayoti bilan bog'lashga intildi. Bu fikrni uning quyidagi so'zlar ham tasdiqlaydi: “O'zbek adabiyotini yuksaltirish, uning tilini chin xalq tili qilish, sodda va chuqur qilish va nihoyat, umuman aytganda, o'zbek sovet adabiyotini chin ma'noda xalqchil qilish uchun folkloarning ahamiyati buyuk bo'lur”.

Ana shu intilishlar samarasи va ijodiy izlanishlari natijasida shoirning bir qator ballada va dostonlari “chin ma'noda xalqchil” asarlar darajasiga ko'tarildi. Xususan, “Jangchi Tursun” balladasi shunday asarlar sirasiga kiradi. Xo'sh, bu asarda ishtirok etgan folklor unsunlari nimalardan iborat?

Bu o'rinda avvalo shuni aytib o'tish kerakki, “Jangchi Tursun” balladasi shoir tomonidan bir necha lirik she'rlarda “razvedka” qilib ko'rilgan jangchi o'g'il va ona munosabatlarining badiiy takomilidir. Zero, asarning g'oyaviy-estetik ta'siri kuchi asosan onaning so'zlariga jalb qilingan. Professor H.Yoqubovning to'g'ri ta'kidlaganidek: “Xalq og'zaki poetik ijodi ritmi bilan yo'g'rilgan ona nutqi farzandi haqida eshitgan xabar bilan boshlanib, ketma-ket o'g'liga berilgan otashin savollarga va nihoyat qat'iy buyruqqa, qalb amrining nakaziga aylanadi”.

Biz o'z oldimizga qo'ygan masalaga ustoz domla ham juda to'g'ri yondasha olgan, ya'ni H.Olimjonning “Jangchi Tursin” balladasida folklordan qay usulda foydalanganini aniqlab bergan. Darhaqiqat, nazarimizda, bu asarda folkloarning shakliy komponentlaridan unumli foydalangan. Jumladan, ona nutqining yarmi xalqning jonli tiliga xos ritorik so'roq shaklida, ikkinchi yarmi esa hukm tariqasida ifoda etilgan. Onaning so'roqlari vatani, el-yurti va oilasi sha'nini muqaddas deb biluvchi har bir kishining yuragida oriyat hislarini qo'zg'atuvchikuchga ega. Bu masalada ikkilanuvchilar yuragiga onaning so'roqlari o'qday qadaladi:

Ko'chadan o'tagingida,

Yerga qarasinmi el?

Ikki ko'zingga qarab

Tuproq to'zg'isinmi el?

Mard o'g'lonlar elning faxri va ishonchi. Ular ko'ksini yovga qalqon qilib doimo elni ofatdan saqlab kelganlar. Shuning uchun ham jangda ikkilanayotgan Tursunga el o'g'lonlarining ana shu udumini eslatadi:

Yigit bo'lib dunyoda

Shu uchun yurganmiding?

O'z yurtidan chekingan

Botirni ko'rganmiding?



Ona nutqining ikkinchi qismida, yuqorida aytilganidek, ritorik so‘roq o‘rnini hukm egallaydi. Shoir shu o‘rinda folklorga xos muhim bir detalni qo‘llaydiki, u balladani badiiy salmog‘ini juda yuqori darajaga ko‘taradi. Bu qonli ko‘ylak detalidir. U Ona Tursun oldiga qo‘yayotgan talablarning kulminatsiyasi sifatida diqqatni jalb qiladi.

H.Olimjon xalq og‘zaki ijodiyotining bebahosidan saralab olgan badiiy jamg‘armalari hech bir mubolaga’asiz aytish mumkinki dramatik asarlari to‘qimasiga ham singib ketdi. Bu hol ikkinchi jahon urushi davri o‘zbek adabiyotida folklorga bo‘lgan yalpi qiziqishning xarakterli namunalardan biri sifatida izohlanadi. Chunonchi, ”Muqanna” dramasining g‘oyaviy-kompozitsion negizi quyidagi uch asosga: tarixiy haqiqatga, badiiy to‘qimaga va xalqning Muqanna haqidagi to‘qigan rivoyatlariga bevosita tayanilgan.

Hamid Olimjon ibn Hakim shaxsiyatiga dialektik nutaqi nazardan yondashadi. Uning qalamida Muqanna tarixiy haqiqat va badiiyat mezonlariga muvofiq tajassumini topadi. Yozuvchi intellekti obraz estetikasini belgilagani singari, H.Olimjon ijodiy fantaziyasining kengligi, tarixiy arboblar va hodisalar haqidagi tushunchasi drama muvaffaqiyatini ta’minladi.

Asar voqealarini harakatga keltiruvchi obrazlarning asosiy qismi bevosita H.Olimjon fantaziyasining mahsullaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. T.: 2008.
2. www.letterature.uz sayti



ABAY – BUYUK QOZOQ SHOIRI VA MA’RIFATPARVARI

Utegenova Sholpan Abusagievna

Qoraqalpog’iston Respublikasi Xo’jayli tumani
16-sonli mактабning qozoq tili va adabiyat fani o’qitivchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk qozoq shoiri va ma’rifatparvari Abay hayoti va ijodi haqida malumot berilgan. Uning sherlari va nasihatlaridan namunalar keltirilgan, shuningdek Abayning ijodini o’rganish Prezident qarori bilan tasdiqlanganligi, uning ahamiyatli ekanligi takidlangan.

Kalit so’zlar: Abay, shoir, ma’rifatparvar, she’r, ijod, doston, o’lan, bastakor.

Abay (Ibrohim) Qo‘nonboyev 1845-yilda Qozog‘istonning Semipalatinsk uyezdiga qarashli Chingiztov hududida chorvador oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi mahalliy zodagonlardan edi. Bobosi O’skenboy va katta buvasi Irg‘izboy o‘z urug‘iga boshchilik qilgan biylardan bo‘lgan. Ibrohim dastlab Semipalatinskda madrasada mulla Ahmad-Rizo qo‘lida savod chiqargan. Bu yerda u arab, fors tillarini o’rganish bilan birga, rus mакtabiga ham qatnab, rus tili va adabiyotini o’rgandi. Besh yillik boshlang‘ich mакtabni tugatar chog‘ida yosh Ibrohim she’rlar mashq qilishni boshlaydi. 13 yoshga to‘lganda otasi Qo‘nonboy uni urug‘ oqsoqollarining faoliyati bilan tanishtira boradi.

Abay bir tomondan Sharq adabiyotining buyuk vakillari A.Firdavsiy, A.Navoiy, Nizomiy ijodi, ikkinchi tomondan, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, M.Ye.Saltikov-Shchedrin asarlari bilan qiziqib, o‘z bilimini oshirdi. Uning ijodi she’r yozish va o’lan aytishdan boshlangan. Abayning ko‘plab o‘lanlari xalq orasida mashhur. U o‘z davrining ilg‘or ziyoysi sifatida ma’rifatparvarlik g‘oyalarni targ‘ib etdi. Abay xalqni savodxon qilishga da’vat etdi. Xususan, xotin-qizlarga quldek munosabatda bo‘lish, ijtimoiy zulm va qoloqlikka qarshi isyonи ijodida ham o‘z aksini topgan. Ulug‘ shoirimiz – Mirtemir tarjimasidagi quyidagi satrlar fikrimizni tasdiqlaydi:

Men netay, axir kimga umid bog‘lay?
Qo‘rqoq qullar yurtida ne baxt chog‘lay?
Bir yo‘lchi topilmasmi sarson elga?
Men izlay, men axtaray, men so‘roqlay...

abayning “Qorong‘i tunda tog‘lar mudraydi” she’ri juda mashhur bo‘lib, ayni paytda xalq qo‘shiqlaridan biriga aylangan. Shoirning o‘zi ham qo‘shiqlarni sevgan va o‘lanlarni miriqib kuylagan. Quyidagi misralarda bunga iqror bo‘lamiz:

Yaxshi qo‘shiq, yaxshi kuy,
Hayotingda qo‘shiqni
Suysang agar mencha suy.
Hasratlaring chekinar,
Unutasan dunyoni.
Yurak zavqqa chulg‘anar
Qo‘shiq tinglagan oning.

Abayni novator shoir sifatida namoyon etuvchi “Bahor”, “Yoz”, “Kuz”, “Qish” she’rlari borki, ularda yaxshilikka intil va yomonlikka qarshi tur, degan g‘oya ilgari suriladi. “Masgud”, “Azim haqida rivoyat” dostonlarida esa Sharq mumtoz ohanglari asosiy o‘rin tutadi. “Iskandar” dostonida Aristotel shaxsidagi aql-idrok bilan Makedonskiy shaxsiyatidagi hirs-ochko‘zlik qarama-qarshi qo‘yildi.

Abay birinchi qozoq bastakori ham hisoblanadi. U o‘z she’rlariga xalq kuylari asosida kuy bastalagan. Uning o‘nlab kuylari bugun ham sevib tinglanadi. Ayniqsa, o‘zining “Ko‘zimning qorasi” she’riga bastalagan kuyi va shu asosida ijro etiladigan qo‘shiq xalqqa manzur bo‘lgan.

Abay rus va Yevropa madaniyatini o‘z xalqiga tanitgan buyuk shoirdir. U A.S.Pushkerring “Yevgeniy Onegin” asaridan parchalarni qozoq tiliga tarjima qildi. Uning 170 ta she’ri, 56 ta tarjimas, dostonlari hamda “Nasihatlar”i bugungi davr kishisi uchun ham o‘qib-o‘rganiladigan katta mакtabdir. Ayniqsa, nasihatlari har bir zamon yoshlari hayotida asqotadi: “Agar har bir harakating tufayli haqiqatga erisha oladigan bo‘lsang, o‘lsang ham bu yo‘ldan qaytma, mahkam tur! Axir, o‘zing shubha qilgan narsaga o‘zgalar qanday qilib ishonch bildirsin? O‘zing hurmat qilmagan narsani o‘zgalar nega hurmat qilsin?”



Abayning “O‘lanlar” va “Abay Qo‘nonboyev” nomi ostida ayrim asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Shoir vatanparvarlik ruhidagi ijodi bilan qozoq milliy ziyolilari tug‘ilishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo‘lgan “Alash-O‘rda” harakati uni o‘zlarining ma’naviy rahnamosi deb bilgan. Bu kabi ma’lumotlar shoir tarjimai holini o‘rgangan birinchi biograf Alixon Bukeyhanovning 1905-yilda “Semipalatinsk varaqasi” gazetasida chop etilgan “Abay (Ibrohim) Qo‘nonboyev” – ta’ziyanomasida ham o‘z aksini topgan. Oradan ikki yil o‘tib, u Abay siymosini aks ettirgan yodnomasini rus tilidagi jurnalda bosib chiqaradi.

Abay katta oila vakili bo‘lib, uning bobolari, ota-onasi, ukasi, to‘rt o‘g‘li haqida ma’lumotlar bor. Ukasi Shokarim ham shoir, yozuvchi, tarjimon, bastakor, tarixchi-filosof edi. Ikki katta o‘g‘li uzoq yashamagan, xastalik tufayli vafot etgan. Uchinchi o‘g‘li Mag‘aviya otasining xohishiga ko‘ra, dostonlar yozgan. Uning “Medgat-Qosim” dostoni ijodining salmoqli qismini tashkil qildi. Mag‘aviyaning asli kasbi huquqshunos bo‘lib, umrining so‘nggigacha mahalliy sudya bo‘lgan. To‘rtinchı o‘g‘li To‘raqul esa “Alash-O‘rda” partiyasi vakili, jamoat arbobi edi. Uning ham shoir va yozuvchi sifatida bir qator asarlari saqlanib qolgan, Yevropa va rus adabiyotidan tarjimalar qilgan.

Ayni paytda Qozog‘istondagi ko‘plab maskanlar ushbu buyuk qozoq shoirining nomi bilan yuritiladi, pochta markalari, Qozog‘iston banknotida uning surati tushirilgan. Mamlakatimiz poytaxtidagi markaziy ko‘chalardan biriga Abay nomi berilgan. U 1904-yilda vafot etgan.

Muxtasar aytganda, Abay Qo‘nonboyev hayoti va ijodi o‘qib-o‘rganiladigan ulkan saboq maktabidir. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 13-martdagi PQ-3598 sonli “Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboyev ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi qarori esa bunga yanada keng yo‘l ochadi.

Foydalanimagan adabiyotlar

1. www.xs.uz
2. www.saviya.uz
3. www.lex.uz



ILM-MA'RIFAT PESHVOSI

Yusupova Go'zal Xusayinovna

Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani

21-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: 995764818

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Ogahiy merosi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ushu ijodkor faoliyati, mumtoz adabiyotga qo'shgan hissasi yuzasidan ilmiy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: til tiyg'i, maoni mulki, eng ko'p va eng xo'b aytqon, devon suvrati, saodat nishon, so'z martabasi, arjumand.

Xorazm azal-azaldan buyuk allomalar yurti hisoblanadi. Bu muqaddas zamin tarixiga nazar tashlasak, unda nomlari adabiyot zarvaraqlariga muhrlanib qolgan ilm ahllari yashab o'tganiga guvoh bo'lamic.

Ana shunday serqirra ijodkorlardan biri Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiydir.

XIX asr o'zbek adabiyoti yirik namoyandasiga Ogahiy buyuk iste'dod sohibi bo'lib, shoirlilik iqtidori, tarixnavislik salohiyati, tarjimonlik mahorati bilan o'zbek madaniyati ravnaqiga katta ulush qo'shgan. Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik siymosi sifatida haqli ravishda Alisher Navoiyga qiyoslanadi.

Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Otasi vafotidan keyin tog'asi Munis qo'lida tarbiyalanadi. Munis boshchiligidagi she'riy yig'inlar bo'lg'usi shoirlarning ijodiga katta ta'sir qildi. Munis vafot qilgandan keyin Olloqulixon uning o'rniiga Ogahiyini bosh miroblik vazifasiga tayinlaydi. Shu davrdan e'tiboran, u xalq hayoti va saroy ishlari bilan bog'lanadi, lekin ijod qilishdan charchamaydi.

Ogahiy "til tiyg'i tortib, maoni mulkini olgan" mahoratlari san'atkordir. Uning badiiy qudratini e'tirof etadigan bo'lsak, yosh Muhammadrizoning "til tiyg'i" Alisher Navoiy mahorat maktabida charxlangan va sayqal topgan.

Navoiydan o'rganish izlari, ulug'san'atkor ta'siriga berilish, ustozning turli g'oya va ifodalarini o'zgacha talqinlarda sharhlash Ogahiy ijodida uchraydigan holatlardir.

Navoiy:

Ne navo so'z aylagay bulbul gulistonidin judo,

Aylamas to'ti takallum shakkaristonidin judo.

Ogahiy:

Gungu lol o'lsam tong shirin kalomim topmayin,

So'z degaymu to'ti o'lgan chog'da shakkardin judo.

Bunday hollar shoirlarning badiiy mahorat qozonish yo'lidagi ijodiy jarayon tarzida baholanmog'i ma'qul. Ulug' Navoiyga ergashish, uning asarlaridan iqtibos olish, fikr-g'oyalarini sharhlash barcha Navoiyga izdosh o'zbek mumtoz shoirlari qatori Ogahiyga ham iftixor sanalgan. Badiiy so'zning ma'no miqyoslaridan keng foydalanish, yangi ma'no qirralarini topish jihatidan ham Ogahiy Navoiydan keyingi "eng ko'p va eng xo'b aytqon" shoirlardandir.

Ogahiy ustozni Munis boshlagan, ammo tamomlay olmagan tarixiy "Firdavs ul-iqbol" asarini yozib tugatdi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid "Riyoz ud-davla", "Gulshani davlat", "Zubdat ut tavorix", "Jome' ul voqeoti sultoni" asarlarini yozdi. Ogahiy tarixnavislik salohiyatidan tashqari tarjimonlik mahorati bilan ham o'zbek madaniyati ravnaqiga katta ulush qo'shgan. Jahon madaniyatining nodir durdonalari hisoblangan Sa'diy Sherzoziyning "Guliston", Nizomiyning "Haft paykar", Hiloliyning "Shoh va gado", Kaykovusning "Qobusnoma", Jomiyning "Yusuf va Zulayho" kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qiladi. Bu mahorati bilan Xorazm ijodkorlarini jahon adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishtirdi.

Ogahiyning she'riy merosi ona tilida yozilgan bo'lib, "Ta'viz ul-

Feruz taklifi bilan tuzilgan. Bu devon XIX asr o'zbek she'riyatining benazir namunasi hisoblanadi. Debochada shoirlarning o'zi shunday deydi:

"Aksari ash'orimni jam' etib, devon suvratida bitdim... Bu saodatnishon devonni "Ta'viz ul-oshiqin" ismi bilan mavsum qildim".



Ogahiy ijodida XIX asr Xiva xonligidagi ijtimoiy muhit o’z ifodasini topgan. Mutafakkir shoir jamiyatning insonparvarlik imkoniyatlarini oshirishning barcha yo’llaridan foydalanishga harakat qildi. Hukmdorlarni adolatga, rahm-shafqatga da’vat etdi. Xiva xonliklaridagi yirik tarixiy shaxslarga bag’ishlab qasidalar yozdi. 1874-yil Ogahiy vafoti tufayli “Shohidi iqbol” asarini tugata olmaydi. Shoирning qabri hozirgi kunda ziyoratgohga aylantirilgan. Shoирning o’z bog’i o’rnida “Ogahiy uy- muzeyi” yodgorlik majmualari yaratilgan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Ogahiy tavalludiga bag’ishlangan yubiley tantanasida qatnashchilarga shunday tabrik yo’lladilar: “Agar Ogahiyning bosh miroblik ilmi va tadbirdorligi Xorazm zaminini suv bilan yashnatgan bo’lsa, uning badiiy tafakkuru va ko’ngil ziyosi millatimiz qalbini so’nmas qadriyatlar bilan nuraфhон etdi.”

Mana ,yillar, zamonlar o’tdi. Buyuk vatandoshimizning tabarruk nomlari abadul-abad adabiyot tarixida muhrlanib qolajakdir. Biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy merosi esa asrlar osha o’z yog’dusini taratib kelmoqda. Ogahiyning muborak nomlari hamon qalbimizdadir. Allomaning o’z so’zi bilan aytganda “so’z martabasi nihoyatsiz baland va so’z ahli hamisha aziz va arjumanddurlar.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.Ma’naviyat yulduzlari. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. Muхarrir F.Hasanov-T:2011 368-bet
- 2.Ogahiy hayoti va ijodi solnomasi. Muallif. M.Safarboyev,A.Ahmedov. Toshkent-2009 36-bet
- 3.Adabiyot. Darslik.9-sinf uchun. Muallif: Q.Yo’ldoshev,V.Qodirov, J.Yo’ldoshbekov. Toshkent 2014
- 4.Ko’hna Sharq darg’alari. Badiiy-ilmiy lavhalar. Muallif: Homidjon Homidiy Toshkent-1999.



OQ KEMA QISSASIDAGI “SHOXDOR ONA BUG’U” TIMSOLIDAGI RAMZIYLIK

**Yusupova Sanobar Kurbanazarovna
Iskandarova Mehribon Yuldashevna**

Xorazm viloyati Urganch shahar
6-son mакtab ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasidagi ramziylik, qissadagi bola orzu qilgan, so’nggi kunlarigacha intiq bo’lib kutgan oq kema, bobosi sovg’ a qilgan portfel va durbin haqida psixologik nuqtai nazardan qandaydir ramziylikni yashirgani asarning badiiy qimmatini oshirishda xizmat qilganligi to’g’risida mulohaza qilingan.

Kalit so’zlar: ramziylik, shoxdor ona bug’u, oq kema, baliq, bola, toshlar, to’kislik, mehr-oqibat, umid, inson, tabiat.

Chingiz Aytmatov asarlarida hayotdagi o’ta muhim masalalar qatorida Inson va Tabiat munosabatlari mavzusi yuksak mahorat bilan tilga olinadi. Yozuvchi o’z asarlarida hayvon va qushlar obrazlarini, shuningdek inson psixologizmini yoritishda xizmat qiladigan turli deatllarni qo’llash jarayonida ularning ostida qandaydir ramziylikni yashirishga harakat qiladi. Filologiya fanlari doktori, professor G`aybullas as-Salom aytganidek: “Aytmatov asarlarida “kosaning tagida nimkosasi” bo’ladi”.

Ramz (arabcha – imo, ishora qilmoq) adabiyotda keng foydalilanidigan tasvir usullaridan biri bo’lib, odam tomonidan aniq tasvvur etilishi mushkul bo’lgan hodisa yoki tushunchalar ifodasi uchun yaqqol ko’rinadigan narsalarning ko’chma ma’noda qo’llanishidir. Masalan, sher – mardlik, bo’ri – ochko’zlik, bulbul – oshiqlik ramzi hisoblanadi.

Chingiz Aytmatov deyarli ko’philik asarlarida ushbu an’anaga tayangan holda ish yuritadi: “Ularda real hayotiy voqealar tasviri bilan turli-tuman rivoyat va afsonalar bir-biirga qo’shilish-chatishib ketadi. Tulki, bo’ri, it, tuya, ot, kalxat, baliq singari xonaki va yirtqich hayvonlar o’ziga xos “adabiy personajlar” bo’lib gavdalanadi” degan edi professor G` Salomov.

Agar “Asrga tatiflik kun”dagi Edigeyning tuyasi Quronor va Kazangapni dafn etish uchun yo’lga chiqqanlarga sherik bo’lgan Yo’lbars nomli itni olib qaraydigan bo’lsak, asarning boshidan oxirigacha vafodorlik, sadoqat ramzi sifatida ifodalanganining guvohi bo’lamiz.

Yozuvchining “Oq kema” qissasi ham ramziylik asosida qurilgan asar hisoblanadi. Qissadagi bola orzu qilgan, so’nggi kunlarigacha intiq bo’lib kutgan oq kemani olib qaraymizmi yoki bobosi sovg’ a qilgan portfel va durbinni olamizmi, yoinki daryoning bo’yidagi bola o’zicha nomlagan harsang toshlarni yoki “yovuz, sevimli, botir, hurkak” o’tlarning ostida ham yozuvchi psixologik nuqtai nazardan qandaydir ramziylikni yashirgani asarning badiiy qimmatini oshirishda xizmat qilgan. Bola o’z xayolida baliqqa aylanib oq kema tomon suzib borish jarayonini tahlil etadigan bo’lsak, bu yerda biz baliqni erk va kuch-qudrat, Oq kemani esa – to’kislik, mehr-oqibat, diydor ramzi deya olamiz.

Qissaning muhim fazilatlaridan biri, unda realizm bilan romantikaning, real ifodalar bilan ramziy usullarning, hayot bilan ertakning uzviy birikib ketganligidir. Ana shularning hammasini yagona bir badiiy g’oyaga birlashtiruvchi kuch Shoxdor ona bug’u obrazidir. “Oq kema” qissasi yetti qismidan iborat bo’lib, uning to’rtinchi qismi bevosita “Shoxdor ona bug’u” hikoyasiga bag’ishlangan ushbu rivoyatdagи Shoxdor ona bug’u uch ma’noni ifoda etadi: birinchidan, u ham tabiiy hayot, ya’ni tabiat hodisasiidir, ikkinchidan, u xalq ertagining afsonaviy qahramoni, uchinchidan, esa u xalq estetik idealining bir ifodasidir, ya’ni nafosat va go’zallik ramzidir.

Yozuvchi ana shu ona bug’u obrazi atrofidagi qarama-qarshiliklarni asarning bosh g’oyasi sifatida tanlagan. Asardagi bola, Mo’min chol, Qulibek obrazlari halollik, mehnatsevarlik, pokizalik, milliy qadriyatlarga hurmat, mehr-muruvvat singari tuyg’ularni O’rozqul obrazidagi shafqatsizlik, ochko’zlik, xunrezlik va manmanlik kabi illatlarga qarshi ifodalashga erishgan. Shoxdor ona bug’u obrazi qirg’izlarning milliy qahramoni, ezgulik, yaxshilik, mehr-oqibat, hayot va nafosat ramzi ekanligi bilan ajralib turadi.

Uning oliyjanobligini, ayniqsa, ikki go’dakni o’limdan qutqarib, ularga o’z onasi kabi mehr ko’rsatib, yo’lidan chiqqan barcha to’siqlarni yengib, ularni yovuzliklardan uzoq joylarga olib ketib, butun bir qabilani saqlab qolganligini ko’ramiz.

Bug’uning mehr-muhabbat timsoli ekanligini go’daklarga aytgan so’zlarida ko’rishimiz



mumkin: “Mana shu yangi Vatanningiz bo`ladi. Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, mol-u hol qilasizlar. Ming yillar tinch-totuv yashanglar. Men esa sizlar va sizlarning bolalaringizning bolalari bilan hamisha birga bo`lay”.

Ona bug`uni biz nafosat ramzi dedik. Lekin yozuvchi bu go`zallikni tabiatdagi boshqa bir go`zalliklar bilan qiyoslab undagi ramziylikni yanada chiroyliroq ifodalashga harakat qilgan: “U sutdek oq, qorni bo`taloqning yungidek qo`n`gir yung bilan qoplangan. Shoxlari bo`lsa go`zallik timsoli: serbutoq, go`yo kuzgi draxtning bir bo`lak shoxi. Yelini emizikli ayolning ko`kragidek top-toza va silliq”.

Xulosa qilib aytganda, boshqa “adabiy personajlari” kabi Shoxdor ona bug`u obrazi ham voqelik bilan go`zallikni bir butunlikda ifodalab, asarning ma`naviy qudratini oshiruvchi ramziy obraz sifatida yaratilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 7-tom, Toshkent.
2. Chingiz Aytmatov Asrga tativlik kun. Qiyomat. Toshkent; 1989-yil.
3. Asil Rashidov. Chingiz Aytmatovning badiiy olami. Toshkent – 2008.
4. www.tadqiqot.uz konferensiyasi materiallari.



**ONA TILI FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARGA DTS
TALABALARIDA KO'RSATILGAN BKM LARNI O'ZLASHTIRISHDA AMALIY ISH
VA MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISH**

Jo`rayeva Gulnoz Komilovna
Navoiy viloyat Navbahor tumani
25-umumi o`rta ta`lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanini o`qitish jarayonida o`quvchilarning DTS talabalarida ko`rsatilgan BKM larni o`zlashtirishda amaliy ish va mashg`ulotlardan foydalanish va uning natijaviyligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: amaliy ish, mashg`ulotlar, faoliyat, kreativlik, fanga qiziqish, erkil fikrlash, bilim, malaka, ko`nikmalarni takomillashtirish.....

**Amaliy ish va mashg`ulotlardan
foydalanish bosqichlari:**

- O`quv yili davomida ona tili fanidan o`tiladigan amaliy ish va mashg`ulotlar tanlanadi, tegishli dars ishlammalari va ko`rgazmali vositalar tayyorlanadi.
- Tanlangan amaliy ishlar va mashg`ulotlar o`quvchilar tomonidan o`qituvchi rabbarligida individual va kichik guruhlarda bajariladi, bajarilgan ish yuzasidagi xulosalar yoziladi, qo`llanmada berilgan savolga yozma javoblari baholab boriladi. O`quvchilarning BKMLarni o`zlashtirishlari asosida darsning samaradorligi aniqlab boriladi.


Umumi o`rta ta`limda ona tili fanining o`rnini beqiyos. Shunday ekan, o`quvchilarning o`tmish madaniyatiga, ona zaminga mehr muhabbat, vatanparvarlik, insomparvarlik g`oyalari, eng avvalo ona tilini o`qitish jarayonida amalgaga oshiriladi.

Bu hol yosh avlodni kamol toptirishda ona tili o`qituvchisining xizmati naqadar katta ekanligini ko`rsatadi. O`quvchilarning o`z fikrini ravon, ifodali va lo`nda bayon qila olish ko`nikmasini shakllantirish ona tili ta`limining bosh maqsadi sanaladi. Darsning qiziqarli va ta`sirchan bo`lishi uchun darslarni o`yinlar asosida olib borishga katta e`tibor qaratiladi. Bunda avvalo o`qituvchi har bir darsni yaxlit holda ko`ra bilishi va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak.

Bu maqsad va vazifalarni amalgaga oshirish uchun o`qituvchi faqat o`quvchilar bilan sinfda o`tiladigan mashg`ulotlar bilangina chegaralanib qolmasdan, darsdan tashqari mashg`ulotlarda ham unumli foydalanmog`i lozim. Amaliy ish va mashg`ulotlardan foydalanish fanni o`qitish jarayonida o`quvchilarning DTS talabalarini maksimal o`zlashtirishlariga erishish; o`quvchilarni ona tili faniga qiziqishlarini oshirish orqali ularni ona tili fani bilan bog`liq bo`lgan kasblarga yo`llash; darslarda amaliy ish va mashg`ulotlarni bajarish orqali o`quvchilarni ilmiy izlanishlarga yo`naltirishga yordam beradi. Mavzularidan kelib chiqqan holda amaliy ish va mashg`ulotlarni o`tkazish uchun kerakli jihozlar, elektron slaydlar hamda boshqa texnik vositalardan unumli foydalanish ham darslarda o`quvchilar faoliyatini rag`batlantirish, to`g`ri baholash ham ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillardan hisoblanadi. Mashg`ulotlarning ko`rsatmali qo`llanmalar, turli jadval va lavhalar, texnika vositalari kabi ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi jihozlardan foydalanib tashkil etilishi o`quvchilarning ushbu fanga nisbatan qiziqishlarini kuchaytiradi. Amaliy ish va mashg`ulotlarga tayyorlanish jarayonida o`qituvchi o`z ustida ijodiy ishlaydi, darslarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli va ijodiy foydalanadi, yangiliklar kiritadi, boshqalarga targ`ib etadi, tajribalar almashadi, o`quvchini ona tili faniga qiziqtiradi, kasba yo`naltirib boradi, baholaydi va maqsadga erishadi.

O`quvchilarning bilim bo`shliqlarini to`ldirishda ham amaliy mashg`ulotlardan foydalanishga, ko`rgazmalilikka alohida e`tibor berilsa ayni muddao bo`ladi. Chunki ta`limning mustaqil ishslash va ko`rgazmalilik tamoyili, qadim zamonalardan beri ishlatilib kelinayotgan eng qulay, samarali va tushunarli tamoyil hisoblanadi. Zero, ko`rish orqali eshitishga nisbatan 13 marta ko`proq axborotlarni miyaga etkazib berish mumkin. Bu ma'lumotlar tez, oson va mustahkam o`rnashib qoladi. Amaliy ish va mashg`ulotlar esa o`quvchida dars mavzusini takrorlash va tushunchalarini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Umumi o`rta ta`lim tizimida har bir fanni o`qitishda, o`quvchilarni erkin fikrlash asosida mustaqil faoliyatga undash muhim shartlardan biri hisoblanadi. Aytaylik, sinfdagi badiiy so`zga qiziqishi va iqtidori bor o`quvchilarga ularning qiziqishini qondiradigan, ehtiyojlarini to`yintiradigan topshiriqlarni ko`proq berish mumkin.



**Amaliy mashg`ulotlarni tashkil etishda
o‘quvchining qobiliyat yo‘nalishlari darajasini
aniqlash usullari:**

- kuzatish jarayoni;
- suhbat jarayoni orqali qiziqishlarini o‘rganish;
- ota-onasi, bolaning o‘zi bilan suhbatlashish;
- diqqat xotirasini tekshirish, testlar olish;
- tadbirlar, konsertlar, kechalar jarayonida aniqlash;
- dars jarayonida aniqlash;
- fan olimpiadalari, musobaqalar jarayonida;
- qiziqishi, shug‘ullanayotgan fan to‘garagi orqali;
- psixologik testlar natijasi orqali

O‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mактабдаги fan to‘garaklarida ham amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mashg‘ulotlarni noan’anaviy tarzda o‘tish o‘quvchilarni faollashtirishda qо‘l keladi.

“Guruh munozarasi”usuli. O‘qitishning bu usuli o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va fikr almashishga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayyan mavzu yoki sahifa ishlab chiqiladi.

2. “Taqnidiy tafakkur” usuli. Bu usulda o‘qituvchi qо‘ygan masala yoki muammoni o‘quvchi o‘z fikrini bayon qilish, o‘zgalar fikrini qayta idrok etish, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal etish imkoniyatlariiga ega bo‘lishga asoslangandir.

3. “Hamkorlik”usuli. Bu usulda o‘quvchilar bir-biriga o‘rgatadi, o‘rganadi, jamoa bo‘lib ishlaydi. Bunda o‘zaro diktant, yozma ish, test, suhbat, o‘zaro muloqot tarzida bir-biriga o‘rgatib, sinfning o‘zlashtirish darjasini yuqori, samarali bo‘lishiga erishibgina qolmay, ahil jamoa bo‘lib shakllanadi.

Biz o‘qituvchilar o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakasini shakllantirish, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalashning asosi – mustaqil fikrlashga undash ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.”Ona tili fanini o‘qitishda qо‘llaniladigan interfaol usullar” Toshkent. 2014
2. ziyonet.uz
- 3.kitob.uz



QISSALARDA SUJET VA KOMPOZITSIYA TAHLILI

Maxkamova Nasibaxon Azamjonovna

Qo‘qon shahar 36-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
e-mail: nasibamaxkamova@inbox.uz

Annotatsiya: maqolada qissa janri va uning o‘ziga xosligi, asar kompozitsiyasi haqida mulohazalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, qissa janri, kompozitsiya, tahlil

Adabiyotshunoslik sohalari ancha yillardan beri badiiy asarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib kelmoqda. Bunday tadqiqotlar badiiy asar yaratuvchisiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shuning uchun badiiy asarni har bir yozuvchi mukammal o‘ylab yozishi kerak.

Yuqori saviyada asar yozishning muhim shartlaridan biri sujet yaratish san’atidir. Zero, «syujet yo‘q joyda badiiylik ham bo‘lmaydi.»

Buyuk tadqiqotchi V.G.Belinskiy ta’biricha, turmush materialidan badiiy sujet yaratish eng avvalo ijodiy niyat bilan omuxtalikni talab etadi. Yozuvchining har qanday badiiy asar asosidagi ana shu ijodiy niyati mazmun, mohiyat tushunchalari bilan birgalashib, sujet monerasini tashkil qiladi.

Ilmiy manbalarda sujet bir necha xil tasnif qilinadi. Jumladan, «Adabiyot enseklopediyasi»da sujetning ikki tipi borligi ko‘rsatiladi: xronikali va kontsentrik.

E.Xudoyberdiyev «Adabiyotshunoslikka kirish» qo‘llanmasida sujetning besh xil ko‘rinishini beradi, Azim Rahimov qarashlariga suyanganligini ta’kidlaydi va beshinchi sujetni «Sintetik sujet» deb nomlaydi. Bu sujet ko‘rinishini qorishiq, ya’ni aralash holda kelishiniyatib, Oybekning «Bolalik» asarini misol tariqasida beradi.

A.Rahimov bu fikrlarni o‘zining «Roman san’ati» qo‘llanmasida ta’kidlab, «bir necha sujet tipi qorishiq va uyg‘un holda kelishi mumkin»ligini, lekin «bu to‘rt turidan boshqa alohida beshinchi turi ham mavjud ekanligini anglatmaydi» deb uqtiradi. Aniq fikrlar sujetning to‘rt: xronikali, kontsentrik, retrospektiv, assotsiativ turi mavjudligini ko‘rsatadi.

Ko‘rinib turganidek, sujet qurilishi masalasi murakkab bo‘lib, yozuvchining o‘z oldiga qo‘yan maqsadiga bog‘liqdir. Syujet - badiiylikning eng go‘zal belgisi. Adib o‘z asarida insonni tarannum etadi. Uning kamchiliklari, o‘y-hayollarini o‘tmish bilan qiyoslaydi, sabab-oqibat tarzida chigalliklarni yechishga urinadi. «Inson jamiyat mahsuli sifatida emas, balki tabiat mahsuli sifatida ham g‘oyat murakkab zotdir. Badiiy adabiyotda bu murakkablik aks etishi mumkin. Hayot murakkab uning so‘qmoqlari odamni goh sevinch gullari sochilgan yo‘llarga boshlaydi, goh boshi berk yo‘llarga olib kiradi. Badiiy so‘z sehti inson taqdiridagi ana shu barcha tomonlarni hayotning musbat va manfiy qirralarini haqqoniy ifoda etishi bilan takrorlanmasdir. Hayot ham, adabiyot ham inson bilan tirik. Dunyoni obod qiladigan ham, barbod qiladigan ham – inson, - deb beziz aytmaganlar. Tirik adabiyotning gullashi, ravnaq topishida insonning o‘rni muhim. Insonni tahlil qilib, qalamga olgan yozuvchi, adib ham inson ekanligini unutmasligi lozim. Yozuvchi hayotda kamgap, talabchan, o‘tkir iste’dod sohibi hisoblanadi. Ular inson his-tuyg‘ularini va ongini tarbiyalashda ulkan rol o‘ynaydigan badiiy va ilmiy adabiyotlarning yaratuvchisi sanaladi. Yuqoridaq parchadan ekspozitsiyaning adabiy asardagi vazifasi aniq ko‘rinib turibdi. Bu parchalar, birinchidan, o‘quvchining asar qahramonining asosiy sifatlari bilan tanishtiradi. Ikkinchidan, bu ekspozitsiya o‘quvchi diqqatini qahramonning xarakter xususiyatiga jalb etadi, uning shaxsiyati va taqdiriga qiziqish uyg‘otadi. Uchinchidan, harakatning, voqeanning, qahramon sarguzashtining qaysi sharoitda boshlanayotganidan xabardor qiladi. O‘zbek adabiyotida qissa janri va uning rivojlanishida qissanavis adib Abduqayum Yo‘ldoshev qissalarida shakl va mazmun birligi nazariy qoliplarga to‘la holatda tushadi. Uning biror bir asarida mazmun yoki shaklning ustivorligini sezmaymiz. Yozuvchi qissalarida shakl va mazmun me’yoriy holatda aks etadi.

Badiiy asarda shakl va mazmun o‘zaro dialektik aloqada bo‘lib, ular bir-birini taqozo qiladi, bir-biriga ta’sir qiladi, bir-biriga o‘tadi. Badiiy shakl bilan badiiy mazmun munosabatida ham mazmun yetakchiroy mavqega ega bo‘lib, u shaklni hosil qilishda juda faoldir.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi sentimental asar bo‘lib, his-tuyg‘uga boyligi bilan boshqa asarlardan farq qiladi. Asarda shakl va mazmun birligi aks etgan.



Qissa shakl jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan barcha tomonni qamrab oladi. Asarning mazmunidan uning shakli kelib chiqar ekan, qissada shu mazmunning barcha xislatlari hukmron.

Qissada bosh qahramon ismlari berilmaydi. Qissa ramziylikka qurilgan bo‘lib, qissaning sarlavhasi ham ramziyidir. Chunki sunbula oyi avgust oyiga to‘g‘ri keladi. Bu oy ya’ni sunbula oyi avgust oyi ekanligi deyarli biz kabi yoshlar tushunmaydi, bilmaydi ham. Asarda qahramonlar ismi berilmaydi. Hikoyachi tilidan berilgan “hamxonam”, “qiz, ayol” kabi jumlalar asosida personajlar tasvirlanadi.

Ma’lumki, har bir davr adabiyotida qo‘llanilib kelayotgan, o‘quvchi omma uchun tushunarli bo‘lgan va o‘zining nisbatan turg‘un ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan shakllar mavjud. Shunga ko‘ra, san’atkor ifodalashni ko‘zda tutgan mazmunni o ‘sha shakllar doirasiga sig‘dirishga intiladi. Masalan, sahna uchun asar yozayotgan ijodkor uni pardalarga, ko`rinishlarga bo‘ladi, syujet voqealarini ijro vaqtiga sig‘diradi, dialoglarni sahna ijrosi uchun mos holga keltiradi, ularni remarkalar bilan ta’minlaydi va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабий тур ва жанрлар. Уч жилдлик. – Тошкент, “Фан”, 1992.
2. Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент, “Адабиёт ва санъат”, 1976. –Б. 262.



«NAVOIY» - TARIXIY-BIOGRAFIK ROMAN JANRINING NODIR NAMUNASI

Normatova Dilfuzaxon Abdumalikovna

Qo‘qon shahar 36-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
e-mail: abdumalikovna@mail.ru

Annotatsiya: maqolada Oybekning “Navoiy” romani va uni tarixiy asar sisatidagi o‘rni, asarning o‘ziga xosligi, tarixiylik prinsipi va shu kabi masalalar yoritilgan

Kalit so‘zlar: adabiyot, adabiyotshunoslik, tarixiy timsollar, ijodkor shaxslar.

Roman voqeasi 18 yoshli yigit — Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotgaga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqeasi Navoiyning o‘limini aks ettirish bilan tugaydi. Demak, asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning oljanob fazilatlari, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi. Navoiy obrazi romanda el va xalq uchun qayg‘uruvchi, yurtning baxt-saodati haqida jon kuydiruvchi,adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug‘ siymo sifatida namoyon bo‘ladi. Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo‘lgan munosabati tasviridan ham o‘rinli foydalangan. Romanda haqqoniy tasvirlanganidek, Navoiy o‘z ona tilisi — turkiyni dil-dildan sevadi.

Oybek romanda Alisher Navoiy boshqa tillarni hech bir kamsitmaganligini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Romanda Navoiy shoir Binoiyliga e’tiroz bildirib:

«Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlaming husn va salobatini hech vaqt inkor etmadik. To go‘daklikdan boshlab fors tilida ham qalam surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug‘ haqiqatdir. Biz go‘daklikda bu haqiqatning ishqini ko‘nglimizga jo qilganmiz, o‘ylashimizcha bu ishqni saqlaymiz! Shaharlarni, qishloqlarni, sahro va tog‘larni to‘ldirgan el-ulusimiz, urug‘-aymog‘imiz bor, uning o‘z zavqi, fahmi-idroki bor. Biz elimizning zavqini, tabiatini nazarda tutib, uning o‘z tilida qalam suraylikki, uning ko‘ngli fikr gullari bilan to‘lsin. Turkona soz bilan tarannum etaylikki, elning yuragi mavjiga kelsin. So‘z gulshanidan o‘zga ellar qatorida bizning elimiz ham bahramand bo‘lsin», — deydi.

«Navoiy» romanida Husayn Boyqaro, Xadicha begin, Mo‘min Mirzo, Darveshali, Binoiylar, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. G‘oyat ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar bosh qahramon Navoiy xarakterini ochishda muhim o‘rin tutadilar. Chunki adib bu obrazlar vositasida o‘sha davr hayotini haqqoniy ko‘rsatgan. Asarda podshoh Husayn Boyqaroning o‘z o‘g‘li Badiuzzamonga qarshi jang qilishi, nabirasi Mo‘min Mirzoni qatl etish haqida farmon berishi, shahzodalarining bir-biriga qarshi qilich qayrashi, bir-biriga xiyonat qilishi singari fojiali voqealar, ziddiyatlar g‘oyat ta’sirli qilib ifodalangan.

Romanda tarixiy shaxs obrazlari bilan birga, Sultonmurod, Dildor, Arslonqul, Zayniddin, To‘g‘onbek singari badiiy to‘qima obrazlarning ham o‘ziga munosib o‘rni bor. Oybek bu obrazlar orqali o‘sha davrdagi ma’lum ijtimoiy guruuhlar hayotini umumlashtirib ko‘rsatib bergen. Shuningdek, bu obrazlar vositasida bosh qahramon Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini yanada yorqinroq ochgan.

«Navoiy» romani o‘zbek romanchiligining ajoyib namunasi va juda katta yutug‘idir. Bu roman jahondagi rus, ingliz, ukrain, nemis, belorus, qozoq, turkman, ozarbayjon, tojik, arab, forslar, eston, latish va xitoy tillariga tarjima qilingan va hamma joyda kitobxonlarga manzur bo‘lgan.

Oybekning «Qutlug‘ qon», «Navoiy», «Ulug‘ yo‘l» romanlarida xalqimizning o‘tmish hayoti tasvirlangan bo‘lsa, «Oltin vodiyyadan shabadalar» (1950), «Quyosh qoraymas» (1959) romanlarida zamonaviy voqelik aks ettirilgan.

«Navoiy» tarixiy-biografik roman janrining nodir namunasidir.

Roman voqeasi 18 yoshli yigit — Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotgaga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqeasi Navoiyning o‘limini aks ettirish bilan tugaydi. Demak, asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning oljanob fazilatlari, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi. Navoiy obrazi romanda el va xalq uchun qayg‘uruvchi, yurtning baxt-saodati haqida jon



kuydiruvchi,adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug‘ siymo sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy o‘z do‘sstlariga nasihat qilib: «...har nechuk falokatni daf etmoqqa g ‘ayrat qilmoq kerak... Muborak Vatanning, el-ulusning salomatligi uchun fidokorlik ko‘rsatmoq vazifamizdir. Sizdan tilagim shuki, bir-birimizga, davlatga, yurtga vafo, sadoqat, muhabbat bilan bog‘lanaylik. Vafo va muhabbat — ulug‘ qudratdir»,— deydi.

Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo‘lgan munosabati tasviridan ham o‘rinli foydalangan. Romanda haqqoniy tasvirlanganidek, Navoiy o‘z ona tilisi — turkiyni dil-dildan sevadi.

Asarda Navoiy obraziga xos xususiyatlar sofkillik, qat’iyat va olujanoblik kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi.

Navoiy obrazida biz eng ulug‘ fazilatlarning ko‘ringanini, uning vatanparvarligini, doima xalq manfaatini o‘ylaganini asarning barcha o‘rinlarida ko‘rshimiz mumkin. Jumladan, uning ona vatan uchun, uning obodonligi yo‘lida qilgan zahmatli mehnatlari tahsinga loyiqdir.

Navoiy o‘sha davr Hirotda ro‘y berib turgan salbiy holatlarning oldini olishga urinadi, Husayn Bayqaroni adolatga chorlaydi. Badiuzzamon va Husayn Bayqaro munosabatlarini yaxshilashga harakat qiladi.

Zamona notinchliklariga barham berish uchun yelib- yuguradi. Hamisha o‘z ona yurtiga vafodor farzand bo‘lishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T: akademnashr, 2010.
2. Karimov X. Tarixiy shaxs va badiiy obraz – T: Yangi andijon avlod, 2006 y.
3. Umarzoqova. Poetik timsol yaratish mahorati // Til va adabiyot ta’limi jurnali , 2002, 1- soni 20-24 betlar.



ONA TILI YASHASA MILLAT YASHAYDI

Imomnazarova Xursanoy Abduvaliyevna

To'raqo'rg'on tuman 19-umumiy o'rta ta'lif muktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili, uning beqiyos ekanligi,ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida. O'zbek tilini xalqaro hayotdagi nufuzini oshirish,kelajak avlodga yetkazishdagi ahamiyatli harakatlar haqida. Har bir shaxs o'z ona tilini sevishi,uni asrab-avaylashi haqida bayon qilingan

Kalit so'zlar: Til, muomala, aloqa, qadriyat, millat, yaxshi so'z, rivojlanish, asrab-avaylash, or-nomus, kelajak, avlod, hurmat.

Til. Oddiy uch tovushdan iborat bo'lgan oddiy bir so'z. Lekin bu oddiy so'z zamirida olam-olam ma'no mujassam. Til unda onaning mehri, vatanning sog'inchi, quyoshning taft mujassam. Til unda shonli tarix,buyuk ajdodlar xotirasi,o'lmas qadriyatlar istiqlol nash'asi,nurli kelajak mujassam.

“Til- millatning ko'zgusidir”, deydilar. Bu ko'zguni gard-g'uborlardan,change-to'zonlardan,soniya sayin tozalay boorish har birimizning farzandlik, fuqarolik burchimizdir. Til o'zagimizning, o'zligimizning,o'ziga bekligimizning bosh belgisidir. Til millatning ruhi , deyiladi.Til yo'qosa millat ham tamom bo'ladi.Til yashasa millat ham yashaydi.,-deydi shoir To'ra Sulaymon.

Dunyoda xalqlar, millatlar juda ham ko'p. Har bir millatni millat sifatida borligini ifoda etuvchi muhim belgilardan biri uning tili hisoblanadi.Ona tili-millatning ruhi,uning or-nomusi,ma'naviy qiyofasi,orzu-umidlarining namunasidir.Ona tili millatning birligi va hamjihatligi ning timsoli hisoblanadi.U xalqni millat sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borligini ta'minlaydi. Ona tili ona kabi ulug' va mo'tabar,takrorlanmas,beminnat bo'lgani uchun unga qiyos qilinadi. Inson uchun uning vatani ,ota-onasi,yaqinlari qanchalik qadrli bo'lsa ,uning ona tili ham shu qadar qadrli va azizdir.Insonlar o'zini,o'zligini ,vatani,ota-onasi,yaqinlarini mana shu ona tili orqali anglaydi.Ona farzand tarbiyasi uchun mas'ul kishi bo'lganidek, ona tili ham insonlarni hayotda o'z ornilarini topishda,muvaffaqiyatlarga erishishida ahamiyati kattadir.

Suv siz daryo bo'limgani kabi tilsiz millat ham bo'lmaydi.Til millat bilan yashaydi,millat bilan bardavom bo'ladi.Bizning ona tilimiz qadimoy tarixga ega bo'lgan tillardandir.ota-bobolarimiz uni asrab avaylaganlar.Uning kelgusi avlodga mukammal til sifatida yetib borishini ta'minlash uchun juda ham samarali ijod qilganlar. Bu borada o'zbek adabiy tilining asoschisi Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning xizmatlari oldida bosh egmay ilojimiz yo'q.So'z mulkinining sultonid deya e'tirof etiladigan Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab bir davrda til himoyasiga otlandi.turkiy tilning o'z imkoniyatlari jihatdan boshqa tillardan qolishmas ekanligini isbotlab berdi.Ko'plab asarlarini mana shu tilda yaratdi

Olimlarning fikricha , dunyoda yetti mingdan ortiq til bor ekan . Mana shu tillarning ayrimlari yo'qolib ketish arafasida turibdi. Oltoy tillar oilasiga mansub bizning o'zbek tilimizda 50 milliondan ortiq kishi so'zlashar ekan.Bizning ona tilimiz ulkan tarixga ega qadimiy til hisoblanadi. Tilimiz ulkan resursga egadir.O'zbek tili boshqa tillardan kam emas .Uning imkoniyatlari juda ham keng.Uni asrab -avaylash,rivojlantirish, kelajak avlodga yetkazish bugungi dolzarb ishlardan biri deb hisoblayman.Buning uchun buyuk ajdodlarimiz yaratgan o'lmas merosga hurmat nazari bilan qarash kerak. Ular bitgan takrorlanmas asarlarni puxta o'rganish ,ularni kelajak avlodga yetkazishga mas'uliyat bilan yondashmoq lozim.Adabiy tilda so'zlashishga ,muloqot qilishga qanchalik e'tiborli bo'lsak tilimiz shunchalik gullab yashnaydi. Adabiy tilda so'zlashish millat -ona xalqiga bo'lgan hurmatning ramzidir.

Adabiy til qoidalariga to'la amal qilish madaniyatli va ma'naviyatli kishilarga xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlardan biri. Har bir o'zbek millatiga mansub bo'lgan kishi ona tilimizni rivojlanishi,gullab yashnashi uchun qo'lidan kelganicha harakat qilmog'i lozim.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deb ta'kidlaganlar:"O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatning bebafo ma'naviy boyligimiz va buyuk



qadriyatiimizdir”.

Biz o’z ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz,, go’zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz,dunyoga tanitishda munosib xissamizni qo’shishimiz kerak.”Til yashasa -millat yashaydi”.Agar biz o’z tilimizni ko’rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak millatimiz , davlatimizning nufuzi oshadi.Birligimiz mustahkam bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maqolalar-til.gov.uz.
2. O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. 2019 yil 21 oktabr.
3. Ona tili 5-sinf darsligi Toshkent-2020 yil



ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA UCHRAYDIGAN SAN'AT TURLARI

Kuranboyeva Oyshajon Baxrambekovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

4-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoir Alisher Navoiy asarlari va uning lirkasida uchraydigan san'at turlari keltirilgan va ularga ta'rif berilgan.

Kalit so'zlar: san'at, lirika, devon, Xazoin ul-maoniy, Navoiy lirkasi, gul, takrorlash, raddul matla.

Alisher Navoiy lirk asarlari jamlangan “Xazoyin ul-maoniy” devonida ikki yarim mingdan ortiq g'azal mavjud. Sharq adabiyotida biror shoirga bunchalik ko'p g'azal yozish nasib bo'limgan, ammo gap faqat sonda emas. Navoiy qalbidan quyilib chiqqan g'azallarning daho ijodkorning benazir san'ati va teran tafakkuridan guvohlik beradigan badiiy durdoni, mo'jizadir. Bu badiiy kashfiyotlarning yaratilganligiga besh asrdan o'tdi, lekin kecha yozilganday hamon ruhimiz, shuurimizni g'alayonga solib, dillarga halovat bag'ishlaydi, o'qigan sari yana o'qigingiz, baytlar qatidagi sehrli va sirli ma'nolarni teranroq, to'laroq anglab olgingiz keladi. Buyuk o'zbek shoiri salaflari ijodxonasida kamolga yetgan ko'hna janrning imkoniyatlarini iste' foda etib, bemisl mahorat ko'rsatish, hazon bo'lmas she'riy gulshanlar yaratish barobarida o'zi mustaqil ravishda yangi ifoda usullari-yu uslublar ixtiro qildi, ijodiy tajribalar, ulkan izlanishlar yo'lidan borib g'azal inkishofini baland cho'qqlarga olib chiqdi. Bu go'zal g'azallar o'zining badiiy jilosi bilan ham ko'zni qamashtiradi.

Biz shoir g'azallarining yuksak badiiyatini ta'min etgan, takrorga asoslangan lafziy san'atlardan ayrimlarini tahlilga tortdik va quyidagi xulosalarga keldik.

Alisher Navoiy lirkasi o'zbek mumtoz she'riyatining yuksak cho'qqisidir. U she'riyatning 16 xil mumtoz janrlarida yaratilgan bo'lib, jamiyat va inson hayotining xilma-xil mavzularini qamrab oladi. Shoir lirkasi mazmun va hajm jihatidan Abdurahmon Jomiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarning “eng ko'b va xo'b “ degan yuksak baholariga sazovor bo'lgan she'riyatdir.

Alisher Navoiy lirkasi o'zining chuqur va boy mazmuni bilangina emas, balki go'zal badiiyati bilan ham she'riyat ahliining qalbini o'ziga rom etgan. Unda 100 dan ortiq she'riy san'atlar istifoda etilgan. Shoir she'riyatida takrorga assoslangan tasdir, tasbig', mukarrar, raddul-matla” kabi san'atlar g'azallardagi fikrning yorqin ifodasiga xizmat qilgan.

Xususan, takrorga asoslangan tasdir va tasbig' san'atining go'zal namunalarini yaratgan. Shoirning quyidagi baytida tasdir san'ati mavjud, ya'ni birinchi misra boshida va ikkinchi misra oxirida “gul” so'zi takrorlanib kelmoqda va tasdir san'atini yuzaga keltirmoqda.

Gul yori safar aylab Navoiy jonig'a,

Har biri bir toza qonlig' dog'i hijron bo'ldi gul.

Ma'lumki birinchi misra oxirida qofiya bo'lib kelgan so'z ikkinchi misra boshida qaytarilishi tasbig' san'atidir.

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,

Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar.

Bunda takrorlangan so'zlar ifodalananayotgan ma'nolarni, fikrlarni ta'kidlashga xizmat qiladi, misralarni bir-biriga bog'laydi, baytning musiqiyligini, misralar ohangdoshligini ta'minlagan.

Akrir “takrorlash” ma'nosini ifodalovchi san'atdir. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish bu – san'atning mohiyatini tashkil etadi. Masalan, Navoiyning quyidagi baytidagi “o'rtadi” so'zi takror qo'llanishi ifodalananayotgan ma'nolarni kuchaytirishga, kechinma va tuyg'ular mavjining benihoyaligini aks ettirishga xizmat qilgan, binobarin, ojiz qiyofasini, uning ichki olamini yorqin va ta'sirchan ifodalashga imkon bergen.

Dema, ishqim nayladikim ro'zg'oringdur qaro,

O'rtadi, ey qotili nomehribonim, o'rtadi.

Mukarrar “qayta-qayta, ust-ustiga” ma'nolarini ifodalaydi va baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llashni nazarda tutuvchi san'atdir. Bu san'at fikrni kuchaytirish bilan birga baytning musiqiyligini kuchaytiradi, g'azal jozibadorligini orttiradi. Quyidagi baytda mukarrar san'atining go'zal namunasi yaratilgan:



Bodadin gul-gul ko’rub ul yuzni, oning hajridin,
Chok-chok ulg’ay ko’nguldek tah-batah qon bo’ldi gul.

G’azal matla’sining birinchi misrasini asar oxirida, maqta’ning ikkinchi misrasida aynan takrorlashni nazarda tutuvchi va “matla’ni takrorlash” degan ma’noni ifodalovchi “raddul matla” san’ati, avvalo, g’azal kompozitsiyasining yahlitligini ta’minalashga xizmat qiladi. Shuningdek, g’azalning birinchi misrasida ilgari surilgan fikrni oxirgi misrada ta’kidlash orqali asar g’oyasining kitobxonga aniq va yorqin yetib borishini ta’minalaydi. Navoiyninig “Qoshi yosimmu deyin, ko’zi qarosinmu deyin” misrasi bilan boshlanuvchi g’azali fikrimizning yorqin dalilidir.

Umuman, shoir she’riyatida qo’llangan takrorga asoslangan lafziy san’atlar so’z va so’z birikmalari takrori orqali asar g’oyasini ta’kidlashga, kuchaytirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, shoir g’azaliyotining jozibadorligini, badiiy go’zalligini ham ta’min etgan.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Badoe’ ul-bidoya.. Mukammal asarlar to’plami.
2. Alisher Navoiy. Bir paripaykar g’ami.
3. Qurbonov A. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari. 2-qism. Ma’ruzalar matni.
4. www.tadqiqot.uz

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000